

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-IQTISODIIY FAKUL`TETI**

**IJTIMOIIY-MADANIIY FAOLIIYAT KAFEDRASI**

**DAVLATOVA MARG`UBA**

**O`ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-MADANIIY FAOLIIYATNI AMALGA  
OSHIRISHDA MILLIIY MENTALITET XUSUSIIYATLARI**

**BITIRUV MALAKAVIIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: o`qituvchi B. Inatullayev**

**Namangan-2014**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
---------------------	---

### I BOB. IJTIMOYIY–MADANIY FAOLIYAT VA MILLIY MENTALITETNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Ijtimoiy – madaniy faoliyat tushunchasi, mohiyati yuzasidan tarixiy va nazariy qarashlar.....	8
1.2. Mentalitet va milliy mentalitetning ijtimoiy–falsafiy genezisi.....	17
1.3. O`zbek milliy mentalitetining bunyodkorlik mohiyati.....	27

### II. BOB. IJTIMOYIY–MADANIY FAOLIYATDA MILLIY MENTALITET XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO`LISHI VA TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

2.1. Ijtimoiy–madaniy faoliyatda milliy urf-odat va an`analarning o`rni.....	39
2.2. Ijtimoiy–madaniy faoliyatni milliy mental xususiyatlar orqali takomillashtirish imkoniyatlari.....	52
2.3. O`zbekistonda ijtimoiy–madaniy faoliyatning istiqbollari.....	62
<b>Xulosa</b> .....	73
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati</b> .....	76

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi vaqtda taraqqiyot kundan-kunga tezlashmoqda. Jumladan O`zbekistonda ham bu jarayonlarni kuzatmoqdamiz. Fuqarolik jamiyati sari intilmoqda ekanmiz albatta har birimiz bunga o`zimizning hissamizni qo`shishimiz zarur. Mustaqillikdan keyin jamiyatning barcha jabhalariga e`tibor berildi. Jumladan ijtimoiy madaniy-faoliyat sohasiga ham katta e`tibor berilmoqda. Ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda milliy mentalitetga katta e`tibor berildi. Bitiruv malakaviy ishida yoritiladigan mavzu ham ya`ni O`zbekistonda ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda milliy mentalitetni o`rni mavzusi millatimiz urf-odatlariga bog`liq bo`lib bu muhim ahamiyatga egadan dalolat beradi.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarimizga bo`lgan e`tibor kuchaydi. Mustaqillikka erishganidan so`ng O`zbekiston o`tgan yillar ichida mashaqqatli va sharaflı yo`lni bosib o`tdi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “O`z istiqlol va taraqqiyot yo`limiz – bu gul bilan qoplangan yo`l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo`lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo`lidir”, deb aytgan so`zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma`no borligini yana bir bor anglaymiz<sup>1</sup>. Zero mustaqillikka erishganidan so`ng xalqimizning sobiq mustabid tuzum davrida toptalgan haq-huquqlari, milliy an`ana, urf-odat va qadriyatlarimiz, o`zlikni anglash, adolat ustivorligi asosida yashah hayotimiz mezoniga aylandi<sup>2</sup>.

Mustaqillik tufayli o`zbek xalqining ko`p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma`naviy merosini o`rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo`l ochildi. Ma`naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaqo xazinası va taraqqiyot manbai hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O`zbekiston, 2011. – B. 27.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Amalga oshirilgan malga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug` kelajagimizning asosiy omilidir // Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasini o`rganish bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanma.. – T.: O`qituvchi, 2014. – B. 7.

O'zbek xalq og'zaki ijodi ham ma'naviy boyligimiz hisoblanadi. Folklor asarlari ma'lum ma'noda xalq badiiy dahosining izchil tarixiy-tadrijiy rivojini o'zida mujassam etgan ma'naviy qadriyat namunasi hisoblanadi. Xalqimizning turmush tarzi, betakror milliy an'analari, urf-odatlar, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati folklor asarlarida o'z aksini topgan. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali ajdodlarimizning dunyoqarashi, maishiy hayoti va an'analari bilan bog'liq ko'pgina ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Zero, haqiqat va real hayotiy voqelik folklor asarlarining yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan birlamchi zamin hisoblanadi. Ma'naviy meros xalqning moddiy boyliklari bilan bir qatorda turuvchi milliy qadriyatlardan biridir. Ana shu milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismlaridan biri – xalqning ma'naviy boyligi – bu xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining esa xalqning, millatning jajji vakillari bo'lmish bolalarning beg'ubor dunyosini aks ettiruvchi, beg'ubor qalbining tarjimoni hisoblanuvchi bir bo'lagi ertakdir.

Bolalar hali go'dakligi davrida ona allasidan orom oladi, nafaqat orom oladi, balki Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «...uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jismu tanida ildiz qoldiradi»<sup>1</sup>. Xalq ertaklari esa ilk ijtimoiy hayot haqida saboq beradi, qo'rqmas va jasur bo'lib o'sishida ahamiyatlidir. Ertaklar bolalarni estetik jihatdan tarbiyalaydi, didini o'stiradi, nafosatga undaydi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ertaklarning folklor asari sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarin, hayotiy voqelikning o'zbek xalq ertaklarida aks ettirilishi, ertaklarning yuzaga kelishi, manbalari va rivojlanish bosqichlari, hayotiy obrazlarning o'zbek xalq ertaklaridagi talqini, ertaklarning jamiyatda komil insonni tarbiyalashdagi o'rnini masalalariga alohida to'xtalangan

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-madaniy faoliyatga katta e'tibor berildi. Buni amalga oshirishda xalqimizning asriy urf-odatlariga, an'analarga, milliy mentlitetiga e'tibor kuchaydi. Lekin ommaviy madaniyatning kirib kelishi

---

<sup>11</sup> Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999. –B. 114

oqibatida salbiy ta'sirlar ortib bormoqda. Shuningdek mavzuning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchi, taraqqiyot asrida axborot almashinuvi, internet tezligi tobora yuqorilab bormoqda. Buning ijobiy jihati bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarini ham kuzatmoqdamiz. Bu holatni aynan ommaviy madaniyat timsolida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni internet orqali ommaviy madaniyatning kirib kelishi tezlashmoqda. Ommaviy madaniyat xurujining tobora avj olishi sezilmoqda.

Ikkinchi, ommaviy madaniyat milliy mentalitetimiz va yoshlar ongiga salbiy ko'rsatayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Uchinchi, ommaviy madaniyatning kirib kelishi oqibatida xalqimizda milliylikimizni unutilishiga olib kelmoqda. Jumladan qizlarning internet tanishuvlari orqali tanimagan, bilamagan chet el kishisi bilan turmush qurishi, yoshlarning urf-odat, qadriyatlarimizni bir chetga qo'yib yevropalashuvi va hokazolar ommaviy madaniyatni kirib kelishini oldini olish ijtimoiy madaniy faoliyat orqali amalga oshirilishi kerakligi mavzuning dolzarb jihatlari sanaladi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy faoliyatni amalga oshirishda milliy mentalitetning o'rni mavzusida aynan aniq tadqiqot olib borgan tadqiqotchi olimlarga duch kelmadik. Ammo ijtimoiy-madaniy faoliyat mavzusi ustida, mentalitet mavzusi ustida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada mentalitet va milliy mentalitet haqida xorijlik olimlardan A.A.Ashxamaxova<sup>1</sup> E.V.Sokolov<sup>2</sup> O.M.Genkin<sup>3</sup> M.S. Kogan va boshqalarni asarlarini mazkur manbaalar qatoriga kiritish mumkin. Bu mualliflarning asarlarida ijtimoiy-madaniy faoliyatning ko'rinishlaridan biri bo'lgan bayramlar, ularning kelib chiqishi, shuningdek mentalitet va milliy mentalitet to'g'risida tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbek olimlaridan M.B.Bekmurodov<sup>4</sup> A.A. Umarov<sup>1</sup>, Sh.Goyupova<sup>2</sup>, Q.Xonazarov<sup>3</sup>, I. Karimov<sup>4</sup>,

<sup>1</sup> Ashxamaxova A.A. Социально-философский анализ менталитета: общее и особенное. Нальчик: 2006.

<sup>2</sup> Sokolov E.V. Свободное время и культура досуга. Ленинград, 1977.

<sup>3</sup> Genkin O.M. Массовые праздники. Москва, 1975.

<sup>4</sup> Bekmurodov M.B. O'zbek mentaliteti. Toshkent – 2011, O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati// "Hurriyat" gazetasi, 2002 yil 17 aprel, Milliy mentalitet va boshqaruv//Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 1998. – №4. – B. 13.;

M.Abdiyev<sup>5</sup>, R.Qurbonniyozova<sup>6</sup>, F. Turg'unboyev<sup>7</sup>, Sh.Alimova<sup>8</sup> kabi olimlar mentalitet va milliy mentalitet haqida tadqiqot ishlari olib borganlar. Aynan ijtimoiy-madaniy faoliyatda milliy mentalitetning o'rnini mavzusida tadqiqot ishlari kamchilikni tashkil etadi. Bu mavzu yuzasidan asosan sotsiologiya fanlari doktori, professor M.B.Bekmurodov ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Mazkur bitiruv malakaviy ishIjtimoiy madaniy faoliyatni amalga oshirishda milliy mentalitet xususiyatlarini tutgan o'rnini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Ijtimoiy–madaniy faoliyat tushunchasi, mohiyati yuzasidan tarixiy va nazariy qarashlarni tahlil qilish;
- Mentalitet va milliy mentalitetning ijtimoiy–falsafiy genezisini yoritish;
- Ijtimoiy–madaniy faoliyatda milliy urf-odat va an'analarning o'rnini tadqiq etish;
- O'zbek milliy mentalitetining bunyodkorlik mohiyatini yoritish;
- Ijtimoiy–madaniy faoliyatni milliy mental xususiyatlar orqali takomillashtirish imkoniyatlarini tahlil etish;
- O'zbekistonda ijtimoiy–madaniy faoliyatning istiqbollari yoritish.

**Mavzuning nazariy-uslubiy asoslari.** Bitiruv malakaviy ishi nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mavzuga oid qonunlar, qarorlar Respublikamizning Prezidenti Islom Karimovning ma'naviyat, milliy madaniy meros va milliy ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konseptual g'oyalari, Respublikamizda mavzuimiz doirasida tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning asarlari, shuningdek muallif tomonidan aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalari tashkil qiladi.

---

<sup>1</sup> Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil insonni shakllantirishda mutolaaning roli. Toshkent-2005.

<sup>2</sup> Goyupova Sh. Mentalitetning ijtimoiy falsafa sohasida o'rganilishining nazariy asoslari. Toshkent .2009.

<sup>3</sup> Xonnazarov Q. Milliy mentalitet taraqqiyot omili//Muloqot-Toshkent :2000 №3;

<sup>4</sup> Karimov I. Millat sha'ni. Toshkent-2005;

<sup>5</sup> Abdiyev M. O'zbekona mentalitetni ifodalovchi leksimalar -Toshkent-2006;

<sup>6</sup> Qurbonniyozova R.Milliy o'zlikni anglashning siyosiy mentaliteti -Toshkent-2006;

<sup>7</sup> Turg'unboyev F. O'zbekistonda mehnat mentalitetining yangilanish xususiyatlari. -Toshkent-2006;

<sup>8</sup> Alimova Sh. Madaniy-marifiy faoliyat asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2007.

Mavzuning yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan haqqoniylik, xolislik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi.

**Malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat.

## I BOB. IJTIMOYIY–MADANIY FAOLIYAT VA MILLIY MENTALITETNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tushunchasi, mohiyati yuzasidan tarixiy va nazariy qarashlar

O`zbekiston mustaqillikni qo`lga kiritgan dastlabki kunlardayoq ijtimoiy hayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga o`tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda aholining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, kishilarning bo`sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o`sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to`laroq qondirish, xalqning badiiy havaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolarga jiddiy e'tibor berildi. "Ijtimoiy-madaniy faoliyat", avvalo, ijtimoiy-madaniy muassasa, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog`lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Ijtimoiy-madaniy muassasalar bu g`oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o`ynaydi. Ularni har tomonlama rivojlantirish, havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning uch asosiy so`zi ya'ni bo`g`ini mavjud bo`lib, bular: "Ijtimoiy", "madaniyat" va "faoliyat" kabi so`z birikmalaridan iborat.

"Ijtimoiy – atamasi arabcha bo`lib, "yakdillik", "hamkorlik" ma'nolarini anglatadi".<sup>1</sup>

"Ijtimoiy" so`zi guruhga, jamoaga oid so`z bo`lib ko`pincha yakka holda qo`llanmay ma'lum bir so`z bilan qo`llanadi. Masalan: Ijtimoiy guruh, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy hamkorlik va hokazo.

Madaniyat arabcha «madina» (shahar) so`zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga bo`lib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik bu ko`chmanchi holda

---

<sup>1</sup> Tuychiyeva S. .Norbekov A. Ijtimoiy siyosat.- Toshkent , 2010. –B. 7.

cho`l sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharlarda o`troq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo`llanib jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo`lga kiritilgan yutuqlar majmuini biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma'lum davrda qo`lga kiritilgan shunday yutuqlari darajasini, o`qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko`rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilikni hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Madaniyat ikki turga bo`linadi: moddiy va ma'naviy madaniyat.

Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalari hamda uning samaralari-mehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalarni o`z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyatga aqlan va ma'nan yaratuvchanlik sohalari-bilim, aloqa, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, din va shu kabilar kiradi.

Har bir jamiyat va davr o`z madaniyat ko`rinishiga ega bo`ladi. Jamiyat o`zgarishi bilan uning madaniyati o`zgaradi-yu, lekin madaniy taraqqiyot o`zilib qolmaydi, ilgari madaniyat yo`q bo`lib ketmaydi, madaniy meros va an'analari saqlanadi.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag`ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo`lmish insonga xos fazilatdir.

“Faoliyat so`zi — kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o`zini o`zi maqsadga muvofiq tarzda o`zgartirish usuli, inson borlig`ining muhim xususiyatlaridan biri”<sup>1</sup>. Faqat faoliyat zamiridagina inson mohiyati namoyon bo`lishi, jamiyatning, har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta'minlanishi mumkin. Inson va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda faoliyat shakllari, asosan, quyidagicha turkumlashtiriladi:

<sup>1</sup> O`zbekiston milliy ensklopediyasi. 9-tom. Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B. 187.

- Moddiy faoliyat. Bunda insonning o'z xavfsizligi ta'minlanishi, oziq-ovqat, kiyim-kechakka bo'lgan dastlabki ehtiyojlarining qondirilishi va mehnat qurollari orqali tashqi tabiatning o'zgartirilishi tushuniladi;
- Ijtimoiy-siyosiy faoliyat bu - ijtimoiy munosabatlarga, ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatish;
- Ma'naviy-faoliyat esa ilm-fan, san'at, din, badiiy ijod va boshqa sohalardagi faoliyatdir. Ijtimoiy-madaniy faoliyat ham aynan faoliyatning mana shu turkumiga kiradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat, asosan kishilarning ishdan bo'sh vaqtlarida olib boriladi, kishilarga asosiy ishdan tashqari har xil mazmundagi va shakldagi "ikkinchi" faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat kishilarning hordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida asosiy ish faoliyat bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat ayrim adabiyotlarda ijtimoiy-madaniy faoliyat ham deb yuritiladi. Bu sohaga adabiyotlarda shunday ta'rif berilgan.

"Ijtimoiy-madaniy faoliyat – aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir"<sup>1</sup>.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'z ob'yekti, predmeti va ish faoliyati mavjud.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat quyidagi ishlardan iborat:

1. Tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish.
2. Xalq havaskorlik ijodini o'stirish.
3. Kishilarning dam olishini tashkil qilish.

Bu ish faoliyatlari ijtimoiy-madaniy ishlarning shakllarini vujudga keltiradi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat turlariga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, ko'rgazma, konkurs, sayohat va ekskursiya kabilar kiradi.

---

<sup>1</sup> Alimova Sh. Madaniy-marifiy faoliyat asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2007. –B.98.

Ko`rinib turibdiki, ijtimoiy-madaniy faoliyatining ish shakllari xilma-xil va ko`pdir. Ular haqida to`liq tushunchaga ega bo`lish uchun maxsus tasnif mavjud. Ular ichida ikki xil tasnif diqqatga sazovordir. Birinchi tur tasniflashga ijtimoiy-madaniy ish shakllariga qatnashadigan kishilarning soni asos qilib olinadi. Ular quyidagilarga bo`linadi: yakka, guruhli va ommaviy shakllar.

1. Yakka shakllar - mutaxassis va tinglovchi o`rtasidagi konsultatsiya, yakka suhbat, ommaviy mashg`ulotlardan tashkil topadi.

2. Guruhli shakllar - taxminan 15-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ya'ni munozara, seminar, suhbat, ekskursiya, havaskorlik jamoalari mashg`ulotlarini o`z ichiga oladi.

3. Ommaviy shakllar - soni cheklanmagan, katta auditoriyaga mo`ljallangan ma'ruza savol-javob kechalari, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va boshqalarda vujudga keladi. Ommaviy shakllar ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy qismini tashkil qiladi.

Ikkinchi tur tasniflash madaniy faoliyatda qanday ta'sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu borada ham ish shakllari 3ga bo`linadi: monologik, diologik va ko`p tarmoqli shakllar.

1. Monologik shakllar - bu notiqning ogzaki, "jonli" so`zi hamda boshqa ta'sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar. Masalan, ma'ruza, doklad, axborot va boshqalar.

2. Diologik shakllar bular asosan, muloqot, suhbat, fikr almashishlardan iborat bo`lib, unga suhbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. Ko`p tarmoqli shakllar deganda monologik va diologik shakllar bilan bir qatorda boshqa ta'sirchan vositalardan foydalanish mumkin bo`lgan tadbirlar tushuniladi. Masalan, ogzaki jurnal, mavzuli kechalar.

Uning tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi qadimiydir. "Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga

kelgan. Hayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, teskari jinsni o'ziga jalb etishga erishishni turli o'yinlar, mashqlar tarzida o'rganib borganlar. O'rgatish uzluksiz, doimiy davom etgan. O'rgatish uzluksizligi va doimiyliigi ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. Demak ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'limning asosi deyish mumkin"<sup>1</sup>.

Odamlar tashqi tabiiy kuchlar (olov, suv, shamol, yer qimirlash) ta'siridan qo'rqib yashaganlar. Shu boisdan ular ta'limni, ya'ni ilk o'rgatish shakllarini olov, suv, shamol, zilzila xudolariga va boshqa turli ilohiy ma'budalarga ehtirom ko'rsatish bilan uyg'unlashtirib o'rgatishga intilganlar. Bu intilish esa folklor o'yinlari shaklida bizgacha yetib kelgan.

Binobarin, odamlarning bu shakllardagi o'zaro uyushuvini ilk ijtimoiylashuv ko'rinishi deb ham hisoblash mumkin. Shu tariqa odamlarning bir – birlari bilan hamkorlik qilishlariga hayotni ta'minlash hamda tabiat kuchlaridan kuchli qo'rqish omillari asos bo'lgan. Shuningdek, odamlarning o'zaro uyushuviga naslni saqlash, ko'paytirish, teskari jinsdan rohatlanishdan iborat tabiiy instinktiv tuyg'u ham kuchli ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin. Shuningdek, muayyan guruh, qabila, urug'ning biologik saqlanishi uchun boshqa urug', qabila tahdidi, ya'ni tashqi kuchlardan himoyalaniish zarurati ham ularni o'zaro ittifoqlashuviga turtki bergan.

Insoniyat ongi, tafakkur tarzining rivojlanishi natijasida odamlararo uyushuvining murakkab strukturasi tarkib topa bordi. Qabilaviy uyushuvdan davlatlar darajasidagi uyushuvlar, millat darajasidagi birlashuvlar tarkib topdi. O'troq turmush tarzi ko'chmanchilikdan iborat hayotga barham berdi. Odamlar o'z millatiga, davlatiga, diniga aloqadorlik, shuningdek o'z qiziqishlari, ideallariga mansublik asosida birlasha boshladilar. Shu tariqa ijtimoiy – madaniy faoliyatning evolyusion jihatdan yuqori bosqichi shakllana boshladi. Ijtimoiy –madaniy faoliyat o'z shakllanish tarixida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

---

<sup>1</sup> Bekmurodov M.B. O'zbek mentaliteti.-Toshkent–2011.-B. 70.

1. Zardo`shtiylik davrida olovga, quyoshga nurga sig`inish orqali odamlarni ezgulik, issiqlik, nur atrofida birlashtirishga intilingan. Buning uchun odamlarni yaxshilik ezgulik xudosi Mitra obrazi orqali birlashtirishga intilish harakati amal qilgan;

2. Islom dinini yoyish uchun aholini ommaviy tarzda qo`rquv omili orqali itoatga undalgan. Bu davrda odamlarni guruhliy ma`rifatga chorlash harakati bo`lgan. Shu tariqa:

- a) ilk ma'rifiy – maishiy muassasalarning tashkil etilgan (honaqohlar)
- b) hordiqiy muassasalar shakllanib, rivojlangan (choyxonalar, guzarlar, musofirxonalar)
- v) tijorat bilan uyg`unlashgan muassasalar faoliyat yuritgan (karvonsaroylar, rabotlar)
- g) diniy-ma'rifiy muassasalari ochilgan (maschitlar)
- d) oliy diniy va dunyoviy muassasalar rivoj topgan (madrasalar)

Mazkur davrda islom dini yetakchi mavqeyeni egallagan edi. Islom diniga xos Ro`za hayiti, Qurbon hayiti kabi bayramlar xalq hayotida munosib o`rin egallagan edi. Qurbon hayiti (arabcha nomi “Iyd al-kubro” yoki “iyd al-azxo”) yetti kun, hozir uch kun – hijriy zul-l-xijja oyining 10-13 kunlarida va kichik bayram Ro`za hayiti (arabcha nomi “iyd as-sag`ir”, “iyd al - fitr”) ham uch kun shavval oyining 1-3 kunlarida nishonlangan. Bayramlarni tashkil etish uchun agar masjid kichikroq bo`lgan holatda “Namozgoh”(Namoz o`qiladigan joy), “Iydgoh” (Bayramlar o`tkaziladigan joy), “Musalla - iyd” (Bayram namozi o`qiladigan joy) kabi shahardan tashqari maskanlar barpo etilib, islom bayramlarining mazmuniga alohida e'tibor berilgan. Bu aholi hayotiga kuchli ijtimoiy – ma'rifiy ta'sir ko`rsatgan. Bu bayramlarning asosiy mazmuni ertalab masjidlarda namoz o`qish, marhumlarni yod etib, duoi fотиha qilishdan iboratdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, islom dini bayramlariga mahalliy xalqlarning odatlari ham qo`shilib ketgan. Masalan, arafa kuni qo`shnilarga osh ulashish, “hayitlik” berish, yangi, toza kiyim kiyish, qo`ni-qo`shnilar, qarindoshlar, qariyalar, kasal–nochorlardan xabar olish,

o`sha kunlarda dam olish, sayil qilish kabi odatlar islom bayramlarining tarkibiy qismlariga aylangan.

O`rta asrlardagi mavsumiy marosimlar ham diqqatga sazovordir. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, mavsumiy marosimlarni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

1. Qishda o`tkaziladigan marosimlar: birinchi qor, qor xat, gap-gashtak va hokazo
2. Bahorgi marosimlar: Navro`z, lola yoki qizil gul sayli, sust xotin va hokazo
3. Yozgi marosimlar: qovun sayli, choy momo va hokazo
4. Kuzgi marosimlar: hosil bayrami, uzum sayli va hokazo

Mazkur marosimlarning har biri o`z tarixiga va xususiyatlariga ega.

Ijtimoiy – madaniy faoliyatning yuqori bosqichi odamlarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qo`shimcha kasblar, hunarlarni o`rganish, qiziqishlar asosidagi klublar, to`garaklarda faoliyat yuritish singari mashg`ulliklar tarzida amal qila boshladi.

Shuningdek, ijtimoiy – madaniy faoliyat turmush tarzini bezash, an'ana va urf – odatlarni o`tkazish, diniy marosimlarni, tabiat va rasmiy bayramlarni nishonlash shaklida ham namoyon bo`la bordi. Shu tariqa ijtimoiy – madaniy faoliyatning odamlar hayotida mustahkam joylashganligining asosiy omillari oydinlashdi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tabiat kuchlaridan qo`rquv asosidagi uyushuv ehtiyoji;
2. Uyushuvning doimiyligini ta'minlash uchun intilish, ya'ni, guruh qabila, urug` liderlari tomonidan muayyan diniy marosimlarni so`zsiz bajarilishining talab etilganligi;
3. Boshqa qabila, urug`lar tahdididan himoyalanihdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;
4. Qabila, urug` doirasida amal qilib kelayotgan hayot tarzini, uning davomiyligini ta'minlash maqsadida turli hunarlar (ov qilish, jang qilish, ekin ekish va hokazo)ni yosh avlodga o`rgatib borish zarurati;

5. Naslni davom ettirish zaruratidan kelib chiquvchi ijtimoiy ehtiyoj hamda teskari jinsdan rohat qilish ishtiyoqi;
6. Bo`sh vaqtni qiziqarli o`tkazish xohishidan iborat madaniy ehtiyoj;
7. Odamlarni favqulodda vaziyatlarda yalpi safarbar qila olishga erishish zarurati;
8. Odamlarni o`zaro ahilligi, totuv turmush tarzini ta'minlash uchun ularni biror bir mashg`ulot turi bilan band etib turishdan iborat ijtimoiy ehtiyoj;
9. San'at turlaridan zavq olish, go`zallikka intilish, nafis narsalarni yaratishdan iborat ma'naviy ehtiyoj;
10. Yoshlarni maqsadli tarbiyalash uchun muayyan idellarga yo`naltiruvchi sog`lom raqobat ruhini yaratishdan iborat jamiyat ehtiyoji;
11. Yoshlarni keng dunyoqarash va chuqur bilimli qilib hayotga tayyorlash uchun ularga qo`shimcha bilim va hunarlar berish zarurati;
12. Jamiyatdagi an'ana, marosim, bayram, urf – odatlarning o`tkazilishini ma'lum tartibotlar asosida muvofiqlashtirib borishdan iborat ijtimoiy ehtiyojlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy – madaniy faoliyat shu omillar asosida o`zining asosiy funksiyalariga ega bo`ldi. Bu funktsiya, ya'ni vazifalar quyidagilardir:

- uzluksizlik;
- davomiylilik;
- foydalilik;
- me'yoriylilik;
- xavfsizlik;
- go`zallikka oshuftalik;
- ma'naviy o`zlikni saqlab turuvchilik;
- shaxsni va jamoani rivojlantiruvchilik;
- estetik saviya, didni tarbiyalovchilik;

- ta'lim, san'at, fan, ishlab chiqarish va boshqa turli xizmat sohalari oldidagi faoliyatlar hamda vazifalarni ixtiyoriy tarzda jamoaviy yoki individual shakllarda rivojlantiruvchilik.

Sho`rolar davrida ijtimoiy – madaniy faoliyat funksiyalari muayyan darajada o`zgartirilib, kommunistik mafkuraga to`la moslashtirildi. Uning nomi madaniy – oqartuv ishi deb atala boshlandi. Madaniy – oqartuv ishi tarkibiga kutubxonalar, klublar, muzeylar, madaniyat va istirohat bog`lari kiritildi. Xalqning ming yillar mobaynidagi an'anaviy ijtimoiy – madaniy muassasalari bo`lgan choyxonalar, guzarlar, bog`lar, nodavlat tashkilotlar, diniy muassasalar, shuningdek, milliy va ijtimoiy uyushganlik shakllari bo`lgan odamlarning ko`ngilli uyushmalari, to`ylar, marosim va an'analar, urf – odatlar bu tarkibdan chetda qoldi. Bir makon va zamon muhitida xalq turmush tarzi o`zgacha, sovetlarning madaniy – oqartuv ishi o`zgacha tarzda amal qila boshladi. Madaniy – oqartuv ishida ommaviylik tamoyili ishlamadi. Shuningdek bu faoliyat odamlarning milliy ruhiga begona ish va mashg`ulotlar tarzida amal qilib keldi. Shunga qaramay sho`rolarning klub va kutubxona muassasalari partiya qarorlari hamda mustabid hokimiyat yo`riqnomalarini aholining eng quyi bo`g`inlarigacha yetkazish ommani siyosiy –mafkuraviy ta'sir doirasida mustahkam ushlab turishda muayyan rol o`ynaydi. Sho`rolar davri madaniy –oqartuv ishi mazmuni quyidagilardan iborat edi:

1. Aholi dunyoqarashining uzluksiz boshqarib turish ;
2. Ruxsat etilgan havaskorlik to`garaklariga aholini jalb etish;
3. Hukmron kommunistik partiya g`oyalarini targ`ib etish;

Shunday qilib, sho`rolar davriga xos bo`lgan xususiyatlar qo`yidagilardan iborat edi:

- Barcha sohalarda yakka hukmronlik qilish mavjud edi.
- Tadbirkorlik, tijorat ishlari siquvga olingan edi.
- Ijtimoiy hayotda dinning roli past edi.
- Jamoat tashkilotlarining faoliyati sust edi.
- Xalqaro hamjamiyatlar bilan aloqa deyarli yo`q edi.

- Milliy madaniy-ma'naviy merosga hurmat sun'iy pasaytirilgan edi.
- Odamlar dunyoda nima bo'layotganini bilmas edilar.
- Ayollar ijtimoiy hayotda kam ishtirok etar edilar.
- Yoshlar jamiyatda hal qiluvchi kuch emas edilar.

Istiqlolga erishganimizdan so'ng ijtimoiy – madaniy faoliyat tubdan o'zgardi. Bu sohada tub tarkibiy o'zgarishlar tadrijiy tarzda amalga oshirilmoqda.

## **1.2. Mentalitet va milliy mentalitetning ijtimoiy – falsafiy genezisi**

Ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik tushunchalar tizimida “mentalitet”ning ham alohida o'rni bor. U turli ijtimoiy munosabatlarga katta ta'sir o'tkazadigan omil sifatida o'zini namoyon etadi. Uning asosiy sub'yektlarini inson, shaxs, oila, millat, xalq, ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy institutlar tashkil qiladi. Ammo nafaqat ana shu sub'yektlar, shuning bilan birga “Mentalitet” tushunchasining o'zi ham fundamental tarzda ijtimoiy-falsafiy jihatdan O'zbekistonda ham MDHda ham juda kam o'rganilgan. Jumladan, Rossiyalik tadqiqotchi A.A.Ashxamaxovaning fikricha “...olimlar mentalitetni yagona tushunchasini aniqlamaganlar...”<sup>1</sup>. Lekin shunga qaramay “mentalitet” tushunchasi haqida turli tuman fikrlarni ilgari surish davom etmoqda. Olimaning ta'kidlashicha, “Ko'pchilik olimlar mentalitet deganda etnik qiyofa, o'z-o'zini anglash, xulq-atvor stereotiplari, odamlar hatti – harakatlarini tushunadilar”. O'zbekistonda bu tushuncha faqat keyingi o'n yil davamida o'rganila boshlandi. Jumladan birinchi bor unga “Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug'at”ida quyidagicha ta'rif beriladi:

“Mentalitet bu jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy taraqqiy topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etuvchi kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, an'analari, urf – odatlari, rasm – rusumlari, hamda diniy

---

<sup>1</sup> Ашхаматова А.А. Социально-философский анализ менталитета: общее и особенное. Автореф. дис. ...док филос.наук. Нальчик : 2006. - 24 с.

e'tiqod va tarzidir”<sup>1</sup>. Bu ta'rif sots.f.d.prof M.Bekmurodov tomonidan berilgan bo'lib, u o'zining keyin e'lon qilgan maqolalarida uni ilmiy jihatdan asoslagan<sup>2</sup>. Professorlar A. Xolbekov va U.Iderov mentalitetga quyidagicha ta'rif berganlar: “Mentalitet (mens – aql, tafakkur) individ yoki bir ijtimoiy guruhning, millatning dunyoni ma'lum bir tarzda tushunish va harakat qilishga tayyorligi va moyilligi”<sup>3</sup>.

“Mentalitet” tushunchasi “Falsafiy qomusiy lug'at”ida quyidagicha ta'rif berilgan “Mentalitet (lotin “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot qonunlarining tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati”<sup>4</sup>.

Professor Q.X.Xonnazarov mentalitet haqida quyidagicha yozadi: “Mentalitet tushunchasi lotinchadan olingan so'z bo'lib jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qoidalarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy qudratidir”<sup>5</sup>. Mentalitetga berilayotgan bu ta'rifda “Falsafa qomusiy lo'g'at”ida berilgan ta'rifdan farqli tomoni unga “ruhiy qudrat” sifatida qaralishida o'z ifodasini topmoqda. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, mentalitet keng qamrovli omillar majmuasidan iborat bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Fikrimizcha “Tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyat, ...kuchi... aqliy qobiliyati” bilan cheklanadigan bo'lsak, “Mentalitet”ning o'ziga xosligini namoyon etuvchi jihati yetishmayapti. Ta'riflarda ko'rsatilayotgan omillar uning darajasini “qudrati”ni o'zida ifoda ettirmoqda. Shuning uchun ham unga e'tiroz bo'lmasligi mumkin. Lekin uni “omillar majmuasi” sifatida qaraydigan bo'lsak, ularni har birining o'ziga xos bo'lgan “ichki” va “tashqi” turli – tumanlik

<sup>1</sup> Abdullayeva M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 19.

<sup>2</sup> Bekmurodov M. Milliy mentalitet va boshqaruv//Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 1998. – №4. – B. 13.; O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati// “Hurriyat” gazetasi, 2002 yil 17 aprel.

<sup>3</sup> Xolbekov A., Iderov U. Sotsiologiya (izohli lug'at – ma'lumotnoma). – Toshkent: Abu Ali ibn Sino Nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999. – B. 83.

<sup>4</sup> Nazarov Q. va boshqalar .Falsafa qomusiy lugat . – T.: “Sharq”, 2004, - 257- bet

<sup>5</sup> Xonnazarov Q.X. Milliy mentalitet – taraqqiyot omili// Muloqot . – Toshkent, 2000. -№3. – B 3.

ko`rinmay qolmoqda. Aslida uning boshqa ijtimoiy – falsafiy tushunchalardan farqli tomoni ham xuddi ana shu xususiyat bilan bog`liqdir.

Yuqorida keltirilgan Rossiyalik tadqiqotchi A.A.Ashxamaxovaning ilmiy tadqiqotlarini kuzatish davomida ma`lum bo`ldiki, u “mentalitet” mavzusi bo`yicha bu mamlakatda e`lon qilingan barcha ilmiy asarlar, himoya qilingan dissertatsiyalarni chuqur analiz qilgan va ular asosida “mentalitet” tushunchasiga quyidagi ta`rifni bergan: “Mentalitet bu tabiiy malumotlardan yuzaga keladigan sotsial komponentlar bilan bog`liq va insonning hayotiy dunyosini ochib beradigan umumiylikdir”<sup>1</sup>.

Xullas, “Mentalitet” tushunchasi haqida olimlar turli fikr bildirmoqdalar. Ularda bu tushunchaning u yoki bu qirralari o`z ifodasini topgan va mazkur masalani yana ham chuqurroq o`rganishda metodologik asos bo`la oladi. Haqiqatdan “mentalitet” tushunchasiga to`laqonli ta`rif berish ancha murakkab masala hisoblanadi. Chunki, yuqorida ta`kidlaganimizdek, uning sub`yektlar doirasi keng bo`lib, ularga xos bo`lgan umumiy tomonlarni bir “maxraj”ga keltirish talab etiladi. Jumladan, inson, shaxs, oila, millat, xalq, ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy intitutlar uchun umumiy tomonlar nimalardan iboratligi aniqlanishi lozim bo`ladi. To`g`ri ularning barchasi inson omiliga borib taqaladi. Lekin inson ham turli sub`yektlar tizimida turli maqomda, manfaatda va boshqa jarayonlarda ishtrok qiladi. Shu ma`noda fikrimizcha “mentalitet”ga ta`rif berganda ana shu omilni asos qilib olish maqsadga muvofiqdir. “Milliy mentalitet” tushunchasiga ham turlicha qarashlar mavjud bo`lib, ularda o`ziga xos bo`lgan ko`pgina qirralar o`z ifodasini topgan. Jumladan, Rossiyalik olimaning fikricha “milliy mentalitet bu millatlar hayotining ob`yektiv va sub`yektiv tomonlarini yakdilligi hisoblanadi. Bu millat mentalitetni yangicha, ya`ni mohiyat va hodisa dialiktik yakdilligi to`g`risida tadqiqot qilishga yordam beradi. Milliy mentalitet mohiyat sifatida – bu milliy hayotiy faoliyatning ichki, sub`yektiv tarafi bo`lib, milliy psixologiyaning

---

<sup>1</sup>Ашхамахова А.А. Социально-философский анализ менталитета: общее и особенное. Автореф. дис. ...док филос.наук.Нальчик : 2006.- 23 с.

barqaror qismidir, hodisa sifatida xalq faoliyatida ushbu mohiyatning ob'yektivlashgan qismidir”<sup>1</sup>.

O'zbekistonda ham “Milliy mentalitet” tushunchasiga ta'rif berish borasida bir qator o'rinishlar mavjud, xususan, Falsafa qomusiy lo'gatda: “Milliy mentalitet” (lotincha “mens” – aql, tafakkur, fikrlash tarzi) – milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi tushuncha”<sup>2</sup> sifatida berilgan ta'rifi keltirilgan. Lekin bu ta'rifda ham milliy mentalitet uchun xos bo'lgan “tafakkur”ni va “fikrlash tarzi”ni aniq ko'rsatuvchi omillar o'rni yetishmayapti. Unda “o'ziga xos xususiyat”i emas, balki “Milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi” tushuncha sifatida berilgan. Agar bu tushuncha ana shu tarzda beriladigan bo'lsa, o'zbeklar bilan boshqa xalqlar faoliyatlari moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish “xarakteri” bilan farqlash mumkin, - degan fikr kelib chiqishi mumkin.

“Mentalitet”ga tadqiqotchi F.Turg'unov unga quyigagicha ta'rif bergan “Mehnat mentaliteti muayyan tabiiy – iqlim, iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy shart – sharoitlarda yashayotgan shaxs, oila, jamoa, millat, elat va xalqning o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish va o'zligini topish maqsadida olib boradigan ongli, tarixiy, amaliy faoliyati tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot tarzi, milliy ruhiyatning namoyon bo'lish usulidir”<sup>3</sup>.

Muallifning fikricha, “Masalani bu tartibda qo'yilishi inson va jamiyat hayot faoliyatida mehnatning o'rni va rolini to'g'ri tushunish va boshqarish mehnatga munosabatni o'zgartirish va jamiyatning rivojlanish omillarini aniqlash imkoniyatini beradi”<sup>4</sup>.

Keltirilgan ta'rifdagi muhim fikr shundaki, unda “milliy ruhiyatning namoyon bo'lishi...” g'oyasining ilgari surilayotganligidir. Haqiqatdan ham mehnat qilish shart – sharoitlari va omillari yashash va ulardan foydalanishda milliy ruhiyat har doim namoyon bo'ladi. Ammo, ta'rifda muallif tomonidan ko'rsatilgan omillarda “Milliy ruhiyatning namoyon bo'lish usulidir”, - degan fikr biroz g'aliz chiqqan.

<sup>1</sup>Ашхамахова А.А. Социально-философский анализ менталитета: общее и особенное. Автореф. дис. ...док филос.наук.Нальчик : 2006.- 10 с.

<sup>2</sup> Falsafa qomusiy lugat . – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar jamiyati “Sharq”, 2004, - 257- bet

<sup>3</sup> Turg'unov F. Mehnat mentaliteti: yangilanish va taraqqiyot dialektikasi. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2004.—B. 13-14.

<sup>4</sup> O'sha manba – B. 14.

Ma'lumki, ijtimoiy–falsafada u yoki bu tushunchaga ta'rif berganda, uning har bir so'zi va qirralari aniq bo'lishi talab etiladi. Shu ma'noda ham “usul” doim amal qiladigan, mavjud bo'lgan omil ko'z oldimizga keladi. Vaholanki, milliy ruhiyat barcha jarayonlarda o'zligini namoyon etish bilan bir vaqtda ularga ularga “moslashib” ko'pchilik holatlarda ularni “moslashtirib” beradi. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, fikrimizcha “usuli” o'rniga “milliy ruhiyatning namoyon bo'lish jarayoni” sifatida qaralsa to'g'ri bo'ladi.

Chunki “usuli”ga nisbattan “jarayoni” milliy ruhiyatning namoyon bo'lishi holatini to'laroq ifodalaydi. Uning bu tushunchada qo'lanishiga yana bir sabab “jarayonning” to'xtovsiz harakatda bo'lishini hisobga olingan bo'lar edi.

Professor Ibrohim Karimov milliy tabiatni mentalitet bilan bir xil tushuncha, sifatida qaraydi. U shunday yozadi: “O'zbeklar tarixan boshqa xalqlar, elatlar va millatlar hamda o'zga diniy e'tiqod egalari his-tuyg'ulariga zo'r hurmat qilish ruhida tarbiyalashgan jahondagi zakovatli millatlar sirasiga kiradilar sahoatpeshalik, ochiqko'ngillilik, rahm-shavqatlilik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, andishalik, izzat-ikromlilik – bular o'zbek milliy tabiati (mentaliteti)ning ajralmas xususiyati bo'lib, bu kabi fazilatlar tufayli ular o'z millati sha'ni uchun ko'rashib keladilar”. Bu fikr ham qiziqarli va ilmiy munozara uchun asos bo'ladi. Haqiqatdan ha muallif tomonidan ko'rsatilgan fazilatlarni “mentalitetga” xos bo'lgan xususiyatlarga kiritish mumkin. Ammo, unda “tabiat” va “mentalitet” bir ma'noni anglatuvchi tushuncha bo'lib qolayotir. Fikrimizcha, ular o'rtasida ma'lum farqlarni ko'rsatganda yana ham aniqroq bo'lgan bo'lar edi.

Xullas, yuqorida keltirilgan ta'riflarning barchasida “milliy mentalitet”ning mustaqil maqomiga xos bo'lgan barcha omillar mavjud. Ulardan ilmiy iste'molda bemalol foydalanish mumkin. Shuning bilan bir qatorda ularni takomillashtirish, yanada boyitib borishga ehtiyoj borligini e'tiborda tutishimiz lozim bo'ladi. Fikrimizcha ular quyidagilar bilan bog'liq:

Birinchi, mentalitet keng qamrovli bo'lib u ilmiy iste'molda va amalyotda asosan millat va xalqqa nisbattan qo'llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Millat va xalqning turmush tarzi, hayot kechirish udumi, mehnat faoliyati, ma'naviy axloqiy

qadriyatlarining o`ziga xosligini o`zga millat va xalqnikidan farqlashda “mentalitet” tushunchasidan foydalanish qo`l keladi. Bunday holatlarda u millat va xalqning o`ziga xos u yoki bu qirralarni alohida ochib beradi, u yoki bu hodisa va jarayonlarga “moyilligini ko`rsatib turadi”.

Prezident Islom.Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq O`zbekistonning taraqqiyot yo`lida uning o`ziga xos xususiyati va sharoitlariga har tomonlama hisobga olishi “avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush tarzidan, xalq an`analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi”<sup>1</sup>, - deb ta`kidlab xalqimizga xos bo`lgan mentalitetni ko`rsatib bergan edi. Bu fikr “mentalitet” tushunchasiga ta`rif berishda metodologik asos bo`la oladi.

Ikkinchidan, “Mentalitet”ning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va ma`naviy, ma`rifiy “maqomi”ni o`rganish ham amaliy ahamiyatga egadir. Ularning har birining amaliy ahamiyati shundaki, inson, shaxs, fuqaro, millat, xalq, ijtimoiy tabaqalar, sinflar, siyosiy institutlar va boshqa bir qator real omillarning tabiati, imkoniyati, ularga ta`sir etuvchi kuchlar va vositalardan umumanfaat yo`lida maqsadli foydalanishga sharoit va imkoniyat yuzaga keltirdi. Bugungi milliy taraqqiyotda sodir bo`layotgan ijobiy o`zgarishlarning ko`lamini kengaytirish jahonda sodir bo`layotgan globalashuvning milliy taraqqiyotga o`tkazayotgan milliy taraqqiyotga o`tkazayotgan salbiy ta`sirini, ko`lamini aniqlash va uni bartaraf etishda demokratik tamoillarning rivojlanishiga millatning qaysi darajada “moyilligini” aniqlashda va bozor munosabatlari shiddat bilan rivojlangan sharoitda ma`naviy-ma`rifiy salohiyatini mustahkamlash hamda uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishda “Mentalitet” omilda sodir bo`ladigan jarayonlarini tahlil qilish va ilmiy xulosalar ishlab chiqishga bo`lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Uchinchidan, Ma`lumki, jamiyatda har doim o`zgarish sodir bo`ladi. Albatta, ular stixiyali tarzda yuzaga kelmaydi, balki, ma`lum ob`yektiv qonunlar asosida va sub`yektiv omillarning o`tkazadigan ta`siri natijasida amalga oshadi. Bu jarayonda “Mentalitet”ning o`rni shundaki, u jamiyatda bo`ladigan ana shu o`zgarishlarning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqloq va taraqqiyot yo`li //O`zbekistn milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura .T.I. – Toshkent: O`zbekiston, 1996. – 41- bet

qamrovi va darajalarini aniqlash “mexanizmi” vazifasini ham bajaradi. Shu ma’nodagi jamiyatning “tabiati”ni o’rganish va u asosida ishlab chiqiladigan xulosalar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, bugungi kunda “mentalitet” omilini o’rganish zaruriyati kuchayib bormoqda. Demak, “mentalitet” tushunchasi va uning ma’no-mazmunini o’rganishni ham takomillashtirib borish zaruriyati yuzaga keladi.

Yuqorida ko’rsatganimizdek, oz bo’lsada Respublikamiz olimlari tomonidan bu borada ma’lum izlanishlar amalga oshirilgan. Biz keltirgan uchta sababga ko’ra ularni imkoniyatimiz darajasida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Eng avvalo “mentalitet” tushunchasiga berilgan ta’riflar va ular qaysi darajada uning ma’no-mazmuni va mohiyatini o’zida ifodalashi haqida fikr yuritamiz.

Bizning fikrimizcha yuqorida keltirilgan ta’riflar “mentalitet” tushunchasining ma’no-mazmuni va mohiyatini umuman ochib beradi. Ammo “Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug’at”da berilgan ta’rif bilan “Falsafa qomusiy lug’at”da berilgan ta’rif o’rtasida bir qator farqlar mavjud. To’g’ri, ular turli mualliflar tomonidan berilgan bo’lishi yoki bitta muallif uni ijodiy rivojlantirgan bo’lishi ham mumkin. Lekin ularning ikkalasida ham “mentalitet”ning jamiyat tarixiy taraqqiy topgan tafakkur darajasi, ... degan fikrlar ham mavjud. Fikrimizcha ularga chuqurroq qaraydigan bo’lsak, turli mulohazalar paydo bo’ladi. Jumladan, jamiyat tafakkur qilmaydi-ku. To’g’ri jamiyatda insonlar, shaxslar, fuqarolar, millatlar va xalqlar yashaydilar. Ular tafakkur qiladilar va ularning tafakkur salohiyati jamiyatda amal qiladigan tafakkur salohiyatini tashkil qiladi. Yoki, “jamiyatning... hayot qonunlarini tahlil etish kuchi...” – degan fikrni olib ko’raylik. Yana jamiyat hayot qonunlarini qonunlarini tahlil etmaydiku. U ongli mavjudod emasku. Xullas, har ikkala ta’rifda yuqoridagi g’aliz g’oyalar haqida yana bir qator mulohazalar yuritishimiz mumkin. Asosiy maqsad bu emas, balki “mentalitet” tushunchasiga berilayotgan ta’rifni aniqlashtirish zarur bo’ladi.

Ilgari surilayotgan fikrlarimizdan kelib chiqib “mentalitet” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **Mentalitet** inson, shaxs, millat, xalq, jamoada

tarixiy tarkib topgan va jamiyatda barqaror amal qiladigan tafakkur darajasi ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish, jamiyatda bu qonunlarning hayotiyligini ta'minlash kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan turmush tarzi va intellektual qobiliyatidir.

“Mentalitet” haqida fikr yuritganimizda eng avvalo uning tizimida milliy mentalitet alohida o`ringa ega ekanligini nazarda tutamiz. Bu bir tomondan, millatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-marifiy hayotga va xalqaro munosabat o`tkazadigan ta'siri kattaligi bilan bog`liq. Shu ma'noda ham uning “mentalitet”ini chuqur bilish orqali ijobiy o`zgarishlarni rivojlantirish va salbiy jarayonlarning oldini olish imkoniyatiga ega bo`lamiz.

Milliy mentalitetga “Falsafa qomusiy lug`at”da berilgan ta'rifni ham keltirgan edik. Ayni paytda u haqda mulohaza yuritib uni takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan edik. Fikrimizning davomi sifatida aytish mumkinki, u qaysidir ma'noda “torroq” va madaniy mentalitetga xos bo`lgan barch qirralarni to`la hisobga olmagan.

Fikrimizcha milliy mentalitet u yoki millatni boshqasidan farqlash uchun uning o`ziga xos bo`lgan milliy-manaviy salohiyati, ongi, ruhiyati, turmush tarzi, hayot kechirish an'analari, urf-odatlar, aqliy qobiliyati va boshqa bir qator xususiyatlari asos qilib olinadi. Haqiqatdan ham ana shu xususiyatlarning birontasi ham biriniki ikkinchisidikiga aynan takrorlanmaydi. Ana shu xususiyatlarni hosobga olib milliy mentalitetga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Milliy mentalitet har bir millatga xos bo`lgan ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichida shakllangan ong, ruhiyat, dunyoqarashi, urf-odati, qadriyatlar, turmush kechirish an'analari, aqliy qobiliyati, tabiati, hayotga bo`ladigan munosabatlar majmuasidir. Milliy mentalitet millat shakllanishi, rivojlanishi va uning “qiyofasini” to`la aks ettirish darajasiga yetib keladi va millat “menligi”ni belgilash mezoniga aylanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, keng ma'noda milliy-manaviy salohiyati turli ob'yektiv omillar sub'yektiv sabablar ta'sirida o`zgarib boradi. Ammo milliy mentalitetdagi o`zgarishlar unga nisbatan sekin kechadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shunday takidlaydi: - "Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va iste'lolarga qramasdan har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yuqotmasdan ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga aml qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-qudrat bo'lib kelmoqda"<sup>1</sup>. Bu keltirilgan fikrdan ma'lum bo'lmoqdaki, millat ongi va turmushiga singib ketgan, uning mentalitetiga aylangan fazilat va ma'naviy omillar uni asrashda muhim ahamiyatga molik bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, "Mentalitet" keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni inson, shaxs, fuqaro, millat, xalq, jamoa, jamiyat va boshqa omillarga nisbattan qo'llash mumkin. U ongli faoliyat natijasida shakllanadigan va turg'un holatda amal qiladigan omillar sirasiga kiradi. Bu keng qamrovli omilni bir butun holatda o'rganish ancha murakkab masala hisoblanadi. Chunki "Mentalitet" tizimini tashkil etuvchi har bir omilni o'ziga xos tabiati, xususiyati va boshqa jihati mavjud. Ularni kompleks o'rganish, imkoniyatlarini aniqlash va umum maqsadlarga yo'naltirish uchun bir nechta ijtimoiy fanlar mutaxassislarini jalb qilish zarur bo'ladi. Bu murakkab vaziyatdan chiqish uchun "Mentalitet"ni ma'lum tarmoq tizimida o'rganish va ularni kelib chiqib xulosalarni umumlashtirish kutilgan natija berishi mumkin. Shu ma'noda ham "Mentalitet" tizimidagi "Milliy mentalitetni" alohida olib o'rganish ma'lum ilmiy xulosalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, "Milliy mentalitet" "Mentalitet"ning bir yo'nalish va ayni paytda uning bir qismini tashkil qiladi. "Milliy mentalitet" faqat millatning keng ma'nodagi xususiyatlari majmuasini qamrab oladi. "Mentalitet" milliy mentalitetga nisbattan keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. U inson, shaxs, millat, xalq, jamoa, jamiyat uzoq tarixiy tarqqiyot jarayonida shakllanib nisbattan turg'un holatda mavjud bo'ladigan omildir. "Mentalitet" tushunchasi yuqorida

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – T.: Manaviyat, 2008. – B. 7.

keltirilgan barcha inson, shaxs, millat, xalq, jamoa va jamiyat kabilarga taaluqli bo'lgan o'ziga xoslikni umumiy tarzda farqlash ma'nosida qo'llaniladi. Ya'ni, ularning hammasida qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar boshqa bir qator belgilar, xususiyatlari qatorida mentalitet omilining ham mavjudligini ifoda ettirishda qo'llaniladi.

“Mentalitet” ana shu umumiylikdan tarmoqlarda ajratilganida uning qamrovi torayib, konkretlashgan holatga keladi. Jumladan, jamoaga xos bo'lgan “mentalitet”, shaxsga xos bo'lgan mentalitet, millatga xos bo'lgan mentalitet va hokazolar vujudga keladi. Bunday holatda “mentalitet”ning tabiati o'rni, jarayonlarga ta'sir etish imkoniyatlari, haqidagi umumiy masalalar emas, balki ayrim inson, shaxs, millat, xalq va boshqa omillarning har biri uchun xos bo'lgan “mentalitet” masalalari nazarda tutiladi. “Mentalitet” bilan “Milliy mentalitet” o'rtasidagi nisbat ham birinchisida shu omilning o'ziga xos xususiyatlari, tabiati, turli munosabatlardagi o'rni va ularga ta'sir etish imkoniyatlari nazarda tutiladigan bo'lsa, ikkinchisida millatning mentalitetiga xos bo'lgan ana shu ta'kidlanayotgan omillarning mavjudligi va amal qilish jarayonlari nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda “mentalitet”ni tarmoqlar bo'yicha o'rganishda dastlabki qadam qo'yildi. Jumladan, proff. M.Bekmurodov “O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati”, dots.F.Turg'unboyev “Mehnat mentaliteti: Yangilanish va taraqqiyot dialiktikasi” kabi konkret aniq yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini olib borganlar. Proff. M.Bekmurodov o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bo'lgan jamoaviylikning ildizlari, uning rivojlanish jarayonlari haqida fikr yuritib shunday yozadi. “Jamoaviylik o'zbek mentalitetida kasb-korga, iqtisodiy omillarga bog'liqlikdan ham ko'ra, etnik va ruhiy-ma'naviy omillarga ko'proq bog'liqlik bilan izohlanadi”<sup>1</sup>. Bu fikri bilan muallif o'zbek mentalitetidagi jamoaviylikni zaminlarini ko'rsatib beradi. Jamoaviylikning zaminlari turli xalqlarda turlicha bo'lishi ham mumkin. Lekin shu o'rinda yuritayotgan mulohazamizning yo'nalishidan kelib chiqadigan bo'lsak, gap konkret

---

<sup>1</sup> Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati// “Hurriyat” gazetasi, 2002 yil 17 aprel

“mentalitet”ning umumiy qirralari va xususiyatlari haqida emas balki o`zbeklar mentalitetidagi jamoaviylikning ildizlari haqidagi g`oyani ilgari surmoqda.

Yuqoridagi fikrlarimizdan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchiidan, “Mentalitet” inson faoliyatining natijasi sifatida shakllanadi. Uning jamiyatda amal qiladigan xususiyatlari ham insonning ko`pqirrali hayot faoliyatining majmui natijasi sifatida yuzaga keladi. Faoliyat bo`lmagan joyda “mentalitet” ham shakllanmaydi.

Ikkinchiidan, “Mentalitet” inson, shaxs, millat, xalq, jamoa, jamiyatga xos bo`lgan tushuncha bo`lganligi uchun u haqida fikr yuritganda “uning” o`ziga xos “maqomi”, ijtimoiy hayotdagi o`rni, jarayonlarga ta`sir ko`rsatish imkoniyati va boshqa bir qator jihatlari nazarda tutilishi lozim bo`ladi. Shu ma`noda uni amalda qo`llanilganda ikki jihatini hisobga olish kerak bo`ladi: a) “Mustaqil” kategoriya ekanligini va shu nuqtai-nazardan yondashuv; b) uning turli sub`ektlarda namoyon bo`lish xususiyatlariga bo`lgan yondashuv bo`lishi maqsadga muvofidir. Bu o`z navbatida ana shu sub`ektlarning o`zlariga xos bo`lgan “Mentalitet”lari haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shunday yondashuv “Mentalitet” va “Milliy mentalitet” tushunchalari o`rtasida fikr mavjudligigidan kelib chiqadi. Ya`ni “Mentalitet” haqida fikr yuritganimizda yuqorida ta`kidlaganimizdek faqat uning mustaqil ijtimoiy-falsafiy kategoriya (tushuncha) va omilligi haqidagi xususiyatlarini “Milliy mentalitet” haqida fikr yuritganimizda uning millatning boshqa xususiyatlari va imkoniyatlari tizimidagi o`rni hamda o`ziga xosligini nazarda tutishimiz lozim bo`ladi.

## **1.2. O`zbek milliy mentalitetining bunyodkorlik mohiyati.**

O`zbek mentalitetining bunyodkorlik mohiyati asosan O`zbekistonda o`tkaziladigan o`zbek milliy bayramlarida namoyon bo`ladi. Bu bayramlarda urf-odatlarimiz, an`analarimiz, qadriyatlarimiz umuman milliy mentalitetimiz barq o`rib turadi. O`zbek xalq bayramlari, uning kelib chiqish tarixi, turlari, nishonlanish jarayoni haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz. Agar tarixchi madaniyatshunos olimlarning “bayram inson bilan birga paydo bo`lgan

va rivojlangan” degan fikriga tayansak, bayramlar kurtaklarini eng qadimiy paleolit davridan, ya'ni O`rta Osiyoda odam zoti paydo bo`la boshlagan - 500 ming yil avvalgi vaqtdan izlasa buladi. Bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, odatlari jiddiy tadqiqotlarni kutmoqda.

Arxeologlar, tarixchilar, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, bayramlar eng qadimiy davrlardayoq mavjud bo`lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o`ynagan. Bu fikrni madaniyatshunos olimlar ham e'tirof etishadi. Masalan, D. M. Genkinning fikricha, “...bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning “gudaklik” davriga borib taqaladi”<sup>1</sup>. N.M.M. Baxtinning ta'kidlashicha, “Bayram-insoniyat madaniyatinnng boshlangich shaklidir”.

Maxsus adabiyotlarning ko`pida bayramlar marosimlardan kelib chiqqan deyiladi. Bu, umuman olganda to`g`ri fikr. Ammo ko`pgina marosimlar o`z navbatida kishilarning mehnat va kurashda erishgan yutug`i va xursandchiligi, boshqacha qilib aytganda, bayram holati asosida vujudga kelgan. Bunga ovchilik va dehqonchilik marosim bayramlari misol bo`la oladi. Buning ustiga mehnatga bag`ishlangan tantanalar faqat marosimdan tashkil topib qolmay, balki unda o`yinlar, musobaqalar uyushtirilib, hatto shu tantana uchun maxsus taomlar tayyorlangan. Shunday qilib, ibtidoiy davrda qadimiy odamlarning o`zlari kabi juda sodda bo`lgan mehnat, hayot va dinga oid turli bayramlar shakllari vujudga kela boshlagandi. Ana shu oddiy shakllar keyingi tarixiy davrlardagi bayramlarga asos va zamin bo`la oldi.

Miloddan avvalgi I ming yilliklar boshlarida (ya'ni bundan 30-26 asrlar muqaddam) O`rta Osiyoda o`troq dehqonchilikning rivoj topishi, ibtidoiy jamiyat yemirila borib, quldorlik tuzumining vujudga kelishi, Sug`d, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlarning paydo bo`la boshlashi, yangi diniy qarashlarning shakllana borishi munosabati bilan yangi

---

<sup>1</sup>Г е н к и н О. М. Массовые праздники. М., 1975, стр- 44.

davrga xos turmush tarzini ifodalovchi an'ana, marosim va bayramlar ham yuzaga keldi.

O`rta Osiyo, jumladan, O`zbekistan hududida yashovchi xalqlarning bayramlarini o`rganishda X—XI asrlarda yashagan buyuk ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari muhim rol o`ynaydi. Beruniy o`zining bu asarida qadimiy eroniylar, xorazmiylar, sug`diylar, rumliklar, yahudiylar, suriyaliklar, xristianlar, hindlar va boshqalarning kalendaridagi mashhur kunlar, hayitlar va odatlar haqida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo`lgan bebaho fikrlar qoldirgan. Biz uchun eng muhimi shundaki, u O`rta Osiyo, jumladan Xorazm va Sug`d xalqlarining islomgacha bo`lgan yillik kalendar bayramlari haqida sezilarli ma'lumotlar beradi.

O`rta asr davomida islom arablari bayramlarning diniy mazmuniga alohida e'tibor berib, ularni tashkil etadigan hashamatli bayram masjidleri qurdirishadi. Keyinchalik bu bayram masjidleri O`rta Osiyo feodal shaharlarining muhim tarkibiy qismi bo`lib qoldi. Ular “Qurbon hayit”, “Ramazon” (iyd-al-fitr) bayramlari va musulmon an'anelarini o`tkazishda diniy markaz vazifasini o`tagan<sup>1</sup>. Bu masjidlarning mohiyati bir xil bo`lsada, ular har joyda turlicha nomlangan: “Nomozgoz” (nomoz o`qish joyi), “Musalla al-iyd” (bayram kuni nomoz o`qish joyi), “Iydgoh” (bayram o`tkazish joyi) va hokazo. Ularning asosiy maqsadi - xalqni musulmon dini asosida birlashtirish bo`lib, bu joylarda majlis, nomoz va qurbonlik kabi diniy anjumanlar uyushtirilgan. Lekin ba'zi vaqtlarda shohlar va hukmdorlar xalqqa o`z olijanobligini ko`rsatish uchun bu yerda katta ziyofatlar ham berishgan.

O`zbek xalq bayramlarining tarixiga murojaat qilar ekanmiz, tadbirning hal etuvchi markazini tashkil etuvchi xalq tomoshalariga to`xtalmaslikning iloji yo`q. O`zbek xalqining milliy tomoshalari agar

---

<sup>1</sup> Кочнев Б. Д. Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии. Ташкент, «Фан», 1976, стр-6.

klassifikatsiya qilinadigan bo`lsa, ularni shartli ravishda ikkiga bo`lish mumkin:

1) Istalgan vaqtda va har qanday joyda bir necha masxaraboz — qiziqchilar yordamida tashkil etiladigan “Kichik tomoshalar” (Ular Xorazmda —“Tuqva”, Farg`ona vodiysida —“Kulgi hikoya” nomi bilan yuritilgan);

2) Yirik xalq bayrami kunlari yuzlab-minglab kishili auditoriya uchun maxsus maydonlarda o`tkaziladigan “Katta tomoshalar” (bunday tomoshalar Farg`onada — “Katta masqarabozlik”, Buxoroda — “Chavsi”, Xorazmda — “Xatarli o`yin” nomi bilan yuritilgan).

Xorazmda “Xatarli o`yin” tomoshasi odatda katta bayramlarda tashkil qilinib, bir necha kun (asosan uch kun) davom etgan. Mazkur tomosha bir necha qism va epizodlardan tashkil topadi. Ana shu epizodlar kun davomida: ertalab birinchi epizodi, tushlik paytida ikkinchisi, kechqurun esa uchinchi epizodi namoyish qilingan. Xullas, ommaviy tomoshaning umumiy sxemasi yoki kompozitsiyasiga nazar tashlaydigan bo`lsak, muayyan bir mavzu va aniq mazmunga ega bo`lgan bir tomosha bir necha kun (2—3 kun) davomida ko`rsatilgan<sup>1</sup>.

Bayram so`ziga ta`rif berib o`tsak. Odatda, bayram - deganda hayotdagi muhim voqea, sanani (kutarinki ruhda va xursandchilik bilan) nishonlash tushuniladi. Bu umuman olganda to`g`ri. Biroq bayramlar tushunchasi ancha keng va chuqur ma'noga ega. Uning ildizlarini inson tabiatining zaminidan topish mumkin.

“Bayramning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, - deb yozadi professor E. V. Sokolov, - u muhim an'analarni qo`llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi”<sup>2</sup>.

O`zbekistonda ijtimoiy-madaniy hayot taraqqiyoti asosida yangi ijtimoiy, mehnat va madaniy muassalarning vujudga kelishi, kishilarning

<sup>1</sup> Q o d i r o v M. O`zbek teatri an'analari. 1976. -B. 109—192.

<sup>2</sup> С о к о л о в Э. В. Свободное время и культура досуга. Л., Лелелинград, 1977, стр-85.

zamonaviy ehtiyoji, davr talablari zaminida yangi zamonaviy bayramlar yuzaga kelmoqda. Chunonchi, tabiatni himoya qilish ehtiyojini kuchayishi natijasida “Tabiatsevarlar bayrami”, xalq madaniyating takomillashtirish yo`lida “Folklor bayrami”, “Til bayrami”, oilaviy va shaxsiy hayotni farovonlashtirish maqsadida oltin, kumush tuylar, qariyalar bayramlari, mahalliy joy hayotini yaxshilashga intilish zaminida kucha bayramlari, mahalla kunlari, qishloq va shahar bayramlari shakllanmoqda.

Vaqt o`tgan va hayot o`zgargan sari ularning soni ham, turlari ham ko`paymoqda. Biroq, “songa doim sifat kerak” deganlaridek, bayramlar soni ko`payishi, ularning sifatini oshirishni ham taqozo qilmoqda. O`zbekiston bayramlarini va bayram holatini vujudga keltiruvchi marosimlarni tadqiq qilish natijasida ma'lum bo`ldiki, hozirgi paytda respublikamizda mavjud bo`lgan va tashkil qilinadigan bayramlarning soni 100 dan oshiq ekan.

Quyida O`zbekiston san`at saroylari hamda madaniyat va istirohat bog`larida yil davomida o`tkaziladigan bayramlar qanday shakllardan tashkil topishi mumkinligiga murojaat qilamiz:

“Mustaqillik kuni” bayrami – 1-sentabrni yurtimiz mustaqillikka erishgan kun deb xalqimiz uni keng nishonlaydi.

“Yangi yilingiz qutlug bo`lsin!” - yangi yilni ko`tib olishga bag`ishlangan teatrlashtirilgan karnaval kechalar, konsertlar.

“Navruz” bayrami - bahorni, yangi kunni sharaflashga bag`ishlangan marosim, tadbirlar, ko`rik, musobaqa, tomoshalar.

“Harbiylar kuni” – harbiylar bayrami keng nishonlaydigan bayram.

“Ayollar bayrami” – xalqaro xotin-qizlar bayrami keng nishonlanadi.

“Xotira kuni” - o`tgan ajdodlarni xotirlovchi, avlodlar uzviyligini mustahkamlovchi miting, marosim, ziyoratlar.

“Keling, bir kulishaylik!” - norasmiy umumqabul qilingan “hazil kuni” - (1 aprel) ga bag`ishlangan quvnoq kecha.

“Lola sayli” - aprel oyining oxirgi dam olish kunlari, mehnatkashlarning saylgohlarga chiqib madaniy dam olishi.

“Bizning kelajagimiz” - 1 iyun - bolalarni himoya qilish kuniga bag`ishlangan marosim.

“Sport bayrami” - 10 avgust - sportchilar kuniga bag`ishlangan marosim-musobaqalar, xalq o`yinlari.

“Qovun sayli” — xalq sayli, tomosha, qovun-tarvuz, ko`rgazmalari va savdosi.

“Birinchi qung`iroq” — 2-sentyabr — yangi o`quv yiliga bag`ishlangan marosim. “Bilimlar kuni” — ilm va bilimga bag`ishlangan tadbirlar.

“O`qituvchilar kuni” — O`qituvchilar kuniga bag`ishlangan bayram kecha.

“Ramazon hayiti” – islom dinida besh farzning biri bo`lgan ramazon oyining boshlanishi.

“Qurbon hayiti” – biror hayvonni qurbonlik qilish va hokazolarni misol qilishimiz mumkin.

Bayramlardan tashqari hozirgi vaqtda san`at sohasida, hunarmandchilik sohasida, sport sohasida, rassomchilik sohasida va boshqa sohalarda milliy mentalitetimizni mujassamlashtiruvchi turli xil ko`rgazmalar, musoboqalar, festevallar va ko`ngilochar tomoshalar tashkil etilmoqda. Jumladan bular:

“Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali. Har ikki yilda qadim va navqiron Samarqand “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivaliga mezbonlik qiladi. Markaziy Osiyoda o`tkaziluvchi ushbu festival Sharq mamlakatlari xalqlari milliy musiqa va qo`shiqchilik san`atining noyob namunalarini keng targ`ib qilish, milliy musiqa an`analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida san`atga bo`lgan mehr-muhabbat tuyg`ularini kamol toptirish, go`zallikni, chin

insoniy qadriyatlarni tarannum etish, shuningdek, xalqlar o`rtasidagi do`stlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirishni maqsad qilgan.

Festival Samarqandning eng go`zal me'moriy ansambli – Registon maydonida bo`lib o`tdi. Maydonda qurilgan katta sahna har ikki yilning 25-30 avgust kunlari dunyoning turli burchaklaridan kelgan san'atkorlarga bor mahoratlarini namoyish etish imkonini beradi.

“Sharq taronalari” birinchi bor 1997-yilda o`tkazilgan. Garchand o`sha yili festival ilk bor o`tkazilishiga qaramay, unda dunyoning 31 mamlakatidan kelgan musiqiy jamoa va ijrochilar qatnashdi. Xalqaro musiqa festivalining geografiyasi yil sayin kengayib bormoqda. Bugungi kunda festival nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki uzoq xorijda ham katta nufuz va mavqega ega. Birgina 2009-yilda dunyoning 50 dan ziyod mamlakatidan kelgan san'atkorlar festivalda ishtirok etdi.

Qolaversa, festival kunlari musiqa mavzusi bilan bog`liq xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarning o`tkazilishi an'anaga aylanib qolgan. Muhimi, ana shu yirik musiqa bayrami dunyo xalqlari musiqasidan bahramand bo`lish, xorijlik san'atkorlar ijdi bilan tanishish, shuningdek, o`zbek milliy musiqasining nodir javohirotlarini butun dunyoga namoyish etish imkonini beradi.

“Asrlar sadosi” – an'anaviy san'at festivali. Umumbashariy madaniyat beshiklaridan bo`lgan qadimiy yurtimiz hududlarida saqlanib, avlodlardan avlodlarga o`tib kelayotgan ko`hna qadriyatlarni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish borasida ibratli ishlar amalga oshirilayotir. Xususan, unutilayozgan uslub va maktablarni qayta tiklashda mamlakatimizda an'anaviy ravishda o`tkazib kelinayotgan “Asrlar sadosi” festivali muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu nufuzli festival joriy yilda Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lgan Sarmishsoy maskanida o`tkazildi. Fond Forumning ulkan loyihalaridan biri – “Asrlar sadosi” an'anaviy madaniyat festivalida O`zbekistondagi turli xalqlarning an'ana va urf odatlari, amaliy san'ati, milliy oshxonasi, noyob og`zaki va nomoddiy merosi namoyish etiladi.

Asrlar sadosi festivali har yili O`zbekistonning turli hududlarida turli mutaxassislar, olimlar va xalqaro mehmonlar ishtirokida bo`lib o`tdi.

Ushbu festival 2008-yilda Shaxrisabz yaqinida, 2009-yilda esa Toshkent viloyatida bo`lib o`tgan edi. "Asrlar sadosi" an'anaviy madaniyat festivali 2009-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda o`tkazilgan edi. 2010-yilda esa Festival Xivadagi Ichan-Qala tarixiy obidasi hududida, 2011-yilda esa Buxoroda o`tkazilgan edi. Ushbu festival 2012-yilda Qoraqalpog`iston Respublikasidagi Ellikqala viloyatida, ko`hna Tuproqqala hududida bo`lib o`tdi.

Shu 5 yil ichida festivalda 200 mingga yaqin odam ishtirok etdi. Oltinchi "Asrlar sadosi" an'anaviy san'at festivali 2013-yil 4-5 may kunlari Navoiy viloyatida bo`lib o`tdi. Bu haqida eng birinchi bo`lib 2012-yil 20-dekabrda Fond Forumning yillik hisoboti online-konferensiyasida ma'lum bo`ldi. Bu yildi Navoiy viloyatoda bo`lib o`tadigan "Asrlar sadosi-2013" festivalini loyihalashtiruvchilari Fond Forum hamda YUNESKO ning O`zbekistondagi vakillari hisoblanadi.

"Art Week Style.uz" san'at haftaligi. 2012-yilning 30-sentabridan 9-oktabrigacha davom etgan Art Week Style.uz san'at haftaligi haqiqatdan ham unutilmas voqealarga boy bo`ldi. Buni "Oltin gepard" Ikkinchi Toshkent xalqaro kinoforumi, "Theatre.UZ/2012" Uchinchi xalqaro teatr festivali va VI Toshkent xalqaro fotosan'ati-2012 doirasida o`tkazilgan 180 ga yaqin tadbirlarga guvoh bo`lgan yuzlab qatnashchi va tomoshabinlar tasdiqlashi mumkin.

1500 dan ortiq kino arboblari va ijodkor yoshlarni jamlagan "Oltin Gepard" Ikkinchi Toshkent xalqaro kinoforumi doirasida 70 ta tadbir bo`lib o`tdi. 1500 dan ortiq mashhur va endigina ijodini boshlagan fotosuratchilarni jamlagan VI Toshkent xalqaro fotobiennalesi esa 37 ta tadbirni birlashtirdi. "theatre.uz.2012" Uchinchi xalqaro teatr festivali doirasidagi 34 ta loyiha esa 1200 nafar teatr olami vakillari va ijodkor yoshlarni jamlay oldi. Bundan tashqari rassomlar, prodyuserlar, aktorlar, rejissorlar, operatorlar, kinoshunoslar, teatr rejissorlari, dramaturglar, sahna ustalari, foto suratkashlar, moda ekspertlari, uslubshunoslarning 27 ta mahorat darslari bo`lib o`tdi.

38 ta badiiy va fotosuratlar ko`rgazmalari, xususan VI Toshkent xalqaro fotosan'ati bo`lib o`tdi. Ularda 200 nafar fotosurtachilar, rassomlar va hunarmandlar ishtirok etib, 8 ta konferensiya va yig`ilishlari o`tkazildi. Ular orasida Britaniya kengashi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "An'anaviy san'at va ijodiyot" xalqaro anjumani, "Buyuk Ipak yo`li mamlakatlari madaniy merosini saqlab qolish" O`zbek – Yapon ilmiy-amaliy konferensiyasi, "O`zbekiston me'moriy obidalaridagi bitiklarlarning milliy ma'naviyat va sharq tamadduni shakllanishi hamda taraqqiy topishidagi mavqei, o`rni va ulkan hissasi" anjumani, "Theatre.UZ/2012" Uchinchi xalqaro teatr festivali doirasida FIPRESSI Xalqaro kinopressalar federatsiyasi Prezidenti Jan Rua ishtirokida o`tkazilgan brifing, II "Oltin Gepard" xalqaro kinoforumi doirasida o`tkazilgan "Zamonaviy kino: makon, zamon, ko`ngil" mavzusida xalqaro anjuman, VI Toshkent xalqaro fotobiennale doirasida o`tkazilgan "Fotosan'at: o`tmish, bugun, kelajak" anjuman, Art Week Style.uz-2012 san'at haftaligi tashkilotchilari, mehmonlari va ishtirokchilarining matbuot anjumanlari kabilar joy oldi.

San'at haftaligi doirasida an'anaviy ravishda mashhur ijrochi hamda musiqachilar ishtirokida konsert dasturlari bo`lib o`tadi. Bu yil esa Amerikalik jazz ijrochisi Kris Botti, Buyuk Britaniyalik qo`shiqchi Sofi Ellis-Bekstor hamda jahon estrada afsonasi Demis Russoslar o`z konsertlari bilan ishtirok etdilar. Barcha 3 ta konsert ham xayriya xususiyatiga ega bo`ldi. 50% gacha bo`lgan chiptalar iqtidorli musiqachilar, talabalar, yosh dizaynerlar o`rtasida tarqatildi. Art Week Style.uz-2012 san'at haftaligi shuningdek 2 ta xayriya tadbirlari - "Hayot uchun" ko`krak bezi saratoni milliy uyushmasi tomonidan Ko`krak bezi saratoni bilan kasallangan ayollarni qo`llab-quvvatlashga bag`ishlangan xayriya tadbiri hamda MEROS O`zbekiston antikvarlari uyushmasining dunyodagi eng katta CHRISTIE'S (Buyuk Britaniya) kimoshdi uyi bilan hamkorlikdagi kimoshdi savdosi bo`lib o`tdi. Mazkur tadbirdan tushgan mablag` madaniy-tarixiy merosimiz namunalarini to`plash va saqlab qolishga oid muammolarga jamoatchilik e'tiborini qaratish, milliy madaniyatimizni keng miqyosda targ`ib

qilish, O`zbekistonda auksionlar faoliyatini rivojlantirish, noyob merosga nisbatan to`g`ri munosabatni shakllantirishga sarflanadi.

Bu yilgi Art Week Style.uz san`at haftaligi 180 ta unutilmas hodisalarni birlashtira oldi. 2013-yilda u bizni nimalar bilan hayratga solarkin? Buni bilib olishimiz uchun 365 kundan kamroq vaqt qoldi.

“Bazar-Art” ko`rgazma-yarmarkasi. So`nggi paytlarda “Bazar-Art” ko`rgazma-yarmarkasining qamrovi sezilarli darajada kengaydi. O`z ishining ustalari qatorida endigina sohaga kirib kelayotgan yosh havaskorlar ishtirokida dekabr oyida o`tkazilgan bayramona yarmarka, fevral oyidagi amaliy san'at yarmarkasi kabilar bunga yaqqol misoldir. Biroq yilda ikki marotaba – bahor va kuz faslida 2007 yildan beri mamlakatimizning eng yaxshi ustalari va hunarmand sulolalari ishtirokida Fond Forum hamda “IJOD” O`zbekiston rassomlari, san'atshunoslari va xalq ustalari uyushmasi tomonidan o`tkaziluvchi asosiy “Bazar-Art” bezakli amaliy san'at ko`rgazma-yarmarkasining o`rni va roli bo`lakcha. Bu bahor 23 mart kuni poytaxtimizdagi Milliy san'at markazida mazkur yarmarkaning eshiklari o`n ikkinchi marotaba ochiq deb e`lon qilinadi. To`rt kun davom etishi rejalashtirilgan ko`rgazma-yarmarka doirasida mahorat darslari ham taqdim etiladi. 25 martda loyihaning eng yaxshi ishtirokchilari taqdirlangach, yana bir kun mobaynida, ya'ni 26 mart kuni san'at ixlosmandlari qo`l mehnati asosida yaratilgan buyumlaridan bahramand bo`lishlari mumkin.

“Bazar-Art” ko`rgazma-yarmarkasida mamlakatimizning barcha hududlaridan 150 dan ortiq usta-hunarmand ishtirok etadi. Ularning buyumlari turli yarmarkalar va do`konlarda haridorgir bo`lsada, eng sara, go`zal va haqiqiy aynan “Bazar-Art” ko`rgazma-yarmarkasi uchun olib qo`yishadi.

“Bazar-Art” doirasida an'anaga ko`ra, bezakli-amaliy san'at ixlosmandlari uchun mutaxassislardan mahorat darslari taqdim etiladi. “Bazar-Art” ko`rgazma-yarmarkasining bir guruh ishtirokchilari mehmonlar bilan kulolchilik, yog`och o`ymakorligi, kashtachilik, miniatyura yaratilish sirlari bilan o`rtoqlashadilar.

Gulnora Karimovaning mualliflik loyihasi bo`lmish “Bazar-Art” ko`rgazmam yarmarkasi – bu an'anaviy va zamonaviy bezakli-amaliy san'at

sohasidagi milliy merosimizning haqiqiy sarchashmasidir. Loyiha an'anaviy va zamonaviy amaliy san'at sohasidagi ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarish, ushbu sohadagi ahamiyatli o'zgarish va yangiliklar bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, ijodkor sulolalar va iste'dodli hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash hamda milliy merosimizni asrab-avaylashga qaratilgan. Loyiha doirasida hunarmandlar va ularning shogirdlariga grantlar ajratiladi. Mazkur grantlar amaliy san'atni yanada rivojlantirish, hunarmandchilikning yo'qolib borayotgan turlari va an'anaviy shakllarni qayta tiklash kabi ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tobora faollik ko'rsatayotgan "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash, ajdodlarimiz ma'naviy merosini izlab topish, ko'z qorachig'idek asrash, ularni jahon miqyosida targ'ib qilish, o'tmish musavvirlari va xalq amaliy san'ati ustalarining asarlari ko'rgazmalarini uyushtirish, bugungi yosh ijodkorlar orasida chinakam iste'dod egalarini kashf etib, elga tanitish singari ko'plab xayrli ishlarga bosh-qosh bo'lmoqda.

Yaqinda mazkur jamg'armaning vasiylik kengashi va Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi tashabbusi bilan poytaxtimizdagi "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida "Sharq xattotlik va miniatyura san'atidan namunalar (VII-XXI asrlar)" albomining rus va ingliz tillarida chop etilgani respublikamiz madaniy hayotida tom ma'noda katta voqea bo'ldi. Qariyb 450 sahifadan iborat bu albomni Mir Arab madrasasi mudarrisi, zarrin-qalam xattot Abdulg'afur Razzoq Buxoriy o'zining shaxsiy kolleksiyasi asosida tartib bergan.

Xattotlik va kitobat san'ati Mashriqzamin aholisining uzoq asrlik madaniy-tarixiy merosida alohida o'rin egallaydi. Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi arab yozuvining ham kirib kelishiga sabab bo'ladi. Natijada arab yozuvi VII asrdan bu xalqlar uchun ilm-fan va davlat ishlarida rasmiy yagona yozuv sifatida o'rin oladi. Albom to'plovchisi yangi nashr uchun yozgan "Sharq husnixati estetikasi" deb nomlangan maqolasida ana shu tarixiy jarayonga murojaat qilar ekan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino,

al-Farg`oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur singari buyuk shaxslar bu yozuvda bitgan asarlari, ezgu amallari bilan jahon tamadduniga munosib hissa qo`shganlarini ta`kidlaydi.

Abdulg`afur Razzoq Buxoriy arabiyda 36 xat turi mavjudligini qayd etib, muhaqqaq, rayhoniyy, suls, nasx, tavqi`, riqo, ta'liq xatlarining o`ziga xos jihatlari ko`rsatib o`tgan. Muallif Xuroson va Movarounnahrda shakllangan Hirot, Buxoro, Xorazm, Farg`ona (Qo`qon), Samarqand, Toshkent xattotlik maktablari hamda ularning namoyandalari bo`lgan mohir kalligraflar ijodi xususida atroflicha to`xtalgan.

Mazkur albomda VII-XXI asrlardagi musulmon Sharqi xattotlik va miniatyura san'ati namunalari “Ilohiy bitiklar”, “She'riyat—hikmat bo`stoni”, “Muqaddas bitiklar”, “Tabarruk maktublar”, “Voqeot—musavvir talqinida”, “Harflar tilga kirganda...”, “San'at insonni ulug`laydi” degan yetti bobga bo`lib joylashtirgan. Chinakam xattotlik san'ati mo`jizalari sanalmish bu namunalarni kolleksiya sohibi uzoq yillar mobaynida yiqqan. Quvonchli tomoni yana shundaki, bu san'at an'analari yurtimizda Habibulloh Solih, Abdulg`afur Razzoq Buxoriy va boshqa xattotlar tomonidan munosib davom ettirilyapti. O`z navbatida ularning shogirdlari Muhiddinjon No`monov, Davlat Safarov, Jahongir ASho`rov va Abdulhakim Razzoqovlarning ijodiy izlanishlari esa Buxoro xattotlik va miniatyura san'atining ertangi kuni porloq ekanidan nishonadir.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko`plab ulug` zotlar, aziz-avliyolar qabrlari, qadamjolari obod qilindi. Albomda Abu Hafs Kabir Buxoriy, Imom Dorimiy, Xoja Bahouddin Naqshband maqbaralaridagi qadimiy an'analar asosida yaratilgan yangi qabrtoshlar suratlari ham berilgan. Bu xattotlik san'ati nafaqat kitobatda, balki me'morchilikda ham o`z aksini topayotganidan, Sharq kalligrafiyasi an'analari bardavomligidan dalolatdir. Hozirgi davrda bunday madaniy faoliyat turlari rivojlanmoqda.

## **II. BOB. IJTIMOYIY–MADANIY FAOLIYATDA MILLIY MENTALITET XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO`LISHI VA TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI**

### **2.1. Ijtimoiy–madaniy faoliyatda milliy urf-odat va an`analarning o`rni**

Urf-odat va an`analar kundalik hayotimizdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatning amaliyoti bo`lib millatni millat sifatida ko`rsatib turadigan muhim belgilardan biridir. U yoki bu millat haqida gap ketganda, eng avvalo, urf-odat, an`ana, qadriyat, udum va marosimlar vositasida uning namoyon bo`lishini ko`rish mumkin. Mazkur omillar millat bilan hamohang sifatida shakllanadi. Ular millatning hayot kechirish tafakkur, yuritish, tabiat, jamiyat va ijtimoiy hayotga bo`ladigan munosabatlari jarayonida shakllanadi hamda taraqqiy qilib boraveradi. Muhim tomoni shundaki, bir tomondan ular millat taraqqiyotining hosilasi bo`lsa, ikkinchi tomondan millatning o`zini ham shakllantiradi. Shu ma`noda urf-odat, qadriyat va an`analarsiz millatni tasavvur qilib bo`lmaganidek, millatsiz urf-odat, an`ana, qadriyat, udum va marosimlarni ham tasavvur qilib bo`lmaydi. Millat haqida ilmiy va badiiy asarlar yoziladigan bo`lsa, albatta urf-odat, an`ana va qadriyatlar asos qilib olinadi. Shuning uchun ham bu tushunchalar keng ommalashib ketgan. Shunga qaramasdan ularning uchun barcha uchun etalon bo`la oladigan yagona ta`rifi ishlab chiqilmagan. Har bir muallif ularga o`zicha ta`rif beradi va tasavvur etadi. Bir tomondan, qaraganda ularga berilayotgan ta`riflar turli-tuman bo`lishi ham tabiiy holat,- deb qarash mumkin. Chunki ular har muallifning qarashi va tasavvurining natijasida shakllangan. Tasavvurlar va qarashlarni bir qolipga solib bo`lmaydi. Chunki bunday harakat ilmiy taraqqiyotga zid hisoblanadi. Ikkinchi tomondan bunday turli-tumanlik mualliflarning nimaga qanday qarashi va nimani nazarda tutishi bilan bog`liq bo`ladi.

Lekin nima bo`lganda ham berilayotgan ta`riflarda umumiy jihatlarni ustuvor bo`lishini asoslash ilm va fan oldidagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib urf-odat, an`ana va qadriyatlarga berilgan ta`riflardan ayrimlarini keltiramiz, hamda ular haqida o`z fikrimizni bildirishga harakat qilamiz.

O'zbekistonda chop etilgan "Falsafa qomusiy lo'g'ati"da "urf-odat, an'analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib qoida; rasm-rusum, tamoyil hisoblanadi"<sup>1</sup>. – deb ko'rsatilgan.

Yana bir lo'g'atda "urf-odatlar marosimlar – tarixan shakllangan va avloddan-avlodga o'tib boradigan, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan va doim takrorlanib turadigan hatti-harakat, xulq-atvor normalari va ko'nikmalari"<sup>2</sup> – deb yondashilgan. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lo'g'atda "urf-odat va rasm-rusumlar – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan hatti harakat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar..."<sup>3</sup> sifatida qayd etilgan.

A.Xolbekov va U.Iderov kabi mualliflarning fikricha "urf-odat xulq-atvor va hatti-harakatlar namunalarning ishchan yig'indisi bo'lib, u odamlarning tevarak atrof va bir-biri bilan o'zaro eng yaxshi tarzda harakat qilishga imkoniyat yaratdi"<sup>4</sup>. Falsafa fanlari nomzodi Sh.Valiyevning fikricha "...urf odat kishilarning turmush tarzi va maishiy hayotida tarixan tarkib topgan va muayyan darajada barqaror bo'lib qolgan qoida va normalar hisoblanadi. An'ana esa mazmun jihatdan urf-odatga nisbattan kengroq va boyroqdir. U urf-odatga xos bo'lgan barcha hodisalarni ifodalashdan tashqari, jamiyat g'oyaviy hayotini, ijtimoiy ong shakllarini va inson faoliyatining boshqa ko'p ma'naviy jihatlarini ham ifodalaydi"<sup>5</sup>.

Shu bilan birga folklorshunos olimlar U.Qoraboyev va B.Sarimsoqovlarning kitoblarida ham urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlar va an'analar to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

<sup>1</sup> Nazarov Q. va boshqalar. Falsafa qomusiy lug'at. – T.: Sharq, 2004, - B. 416.

<sup>2</sup> Nazarov Q. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lo'g'at) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. - B. 146.

<sup>3</sup> Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at.- T.: Sharq 1998. – B. 218

<sup>4</sup> Xolbekov A., Iderov U. Sotsiologiya (izohli lo'g'at – ma'lumotnoma) - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999, -B. 133.

<sup>5</sup> Valiyev.Sh. Go'zal hayotimizga an'analar yarashadi// Fan va turmush. – Toshkent, 1973. - №3. – B.24.

“Urf-odat – deyilganda kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddat takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko’pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko’nikmasi tushuniladi”<sup>1</sup>.

“An’ana” tushunchasiga ham munosabatlarning turli-tumanligini ko’rish mumkin. “An’ana ajdodlarning tarixan to’plangan ma’naviy qadriyatlarini avlodlarga o’zlash, berish vositasi. An’ana o’z holicha mavhum tushuncha bo’lib, aslida an’anaga aylangan rasm-rusumlar, urf-odatlar, marosimlar, udumlar, kunikmalar, malakalar, turmush tarzi va boshqalar haqida fikr yuritganda, u aniq ma’no kasb etadi”<sup>2</sup>. “An’anaga” jamiyatga nisbatan qo’llash ham mavjud. Jumladan, “An’analar - jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma’naviy hayot shakllarining, kishilar o’rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan avlodga o’tish, ajdodlar hayoti belgilari va xususiyatlarining takrorlanishi tarzi”<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, “An’anaga” madaniy meros elementi sifatida qarash ham mavjud. Yuqorida keltirilgan A. Xolbekov va U. Iderovlarning “Sotsiologiya” (izohli lug’at – ma’lumotnoma)sida “An’analar – uzoq vaqt davomida avloddan avlodga o’tkazib beriladigan va ma’lum jamiyatlarda, ijtimoiy guruhlarda saqlanib boradigan ijtimoiy va madaniy meros elementlari”<sup>4</sup>. Prof. U.X.Qoraboevning fikricha, esa “An’analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanish jarayonida yaratilgan va avloddan avlodga muqadas meros sifatida o’tib kelayotgan bebaho boyligidir”<sup>5</sup>.

U o’zining “O’zbek xalqi bayramlari” nomli fundamental monografiyasida quyidagicha yozadi: “An’ana – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan avlodga meros bo’lib o’tadigan, kishilar ma’naviy hayotiga ta’sir ko’rsatadigan madaniy hodisalar. An’ana o’ziga

<sup>1</sup> Qoraboev U. O’zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002. –B. 8.

<sup>2</sup> Valiyev Sh. Guzal hayotimizga an’analar yarashadi// Fan va turmush. – Toshkent, 1973.-№3. – B.24

<sup>3</sup> Nazarov Q. va boshqalar . Falsafa qomusiy lo’g’at. –T.: Sharq, 2004. –B. 32.

<sup>4</sup> Xolbekov A., Iderov U. Sotsiologiya (izohli lo’g’at – ma’lumotnoma) - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999, -B. 16.

<sup>5</sup> Milliy urf-odat, marosim va an’analarning shaxs ma’naviy kamolotidagi o’rni mavzusida 1998 yil 30 noyabrda Toshkent shahrida o’tkazilgan seminar materiallari. – Toshkent: 1999. –B. 38.

xos ijtimoiy hodisa sifatida kishilar ongiga singan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi”<sup>1</sup>

Yuqorida turli mualliflar tomonidan urf-odat va an'analarga berilgan ta'riflardan yaqqol ko'rinib turibdiki, bu tushunchalar to'g'risida yakdillik yo'q. hatto birini ikkinchisi bilan aralashtirib yuborish holatlarini ham ko'rish mumkin. Jumladan, urf-odatni an'ana sifatida (Falsafa qomusiy lo'g'at-416) urf-odatlarni, marosimlari bilan bir xil tushuncha sifatida va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan va doim takrorlanib turadigan hatti-harakat, hulq atvor, normalar va ko'nikmalar (milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. Qisqacha izohli tajribaviy lo'g'at, 249-bet), xulq-atvor va hatti-harakatlarining ishchan yig'indisi (A.Xolbekov, U.Idirov. Sotsiologiya izohli lo'g'at – ma'lumotnoma, 133-bet) va boshqa bir qator qarashlar mavjud. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu tushunchalar chuqur falsafiy tahlilga muhtoj. Agar bu o'ta murakkab va o'ta nozik tushunchalarning ma'no-mazmuni aniqlanmasa, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni va imkoniyatlarini aniqlash ham murakkabligicha qoladi. Bundan tashqari yuqorida keltirilgan tushunchalarga berilgan ta'riflarning aksariyat ko'pchiligida “milliy urf-odat, an'analar”ning alohida ta'rifi uchramaydi. Aslida bu tushunchalar “millat”ga nisbattan qo'llaniladi va uning o'ziga xosligini anglashi, tasavvur ettirish ma'nosida qo'llaniladi. Bizning fikrimizcha bu tushunchalar alohida-alohida bo'lib bir xil ma'noni anglatmaydi va ular rasm-rusumlar yoki marosimlar bilan bir ma'noni anglatuvchi tushunchalar emas. Agar ular bir xildagi ma'noni anglatganda edi, birontasini ilmiy va amaliy iste'molda qo'llashning o'zi kifoya bo'lur edi. Shuning uchun bu tushunchalarni mustaqil tushunchalar sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Fikrimizcha urf-odat, an'ana va qadriyat tushunchalarni falsafiy talqin etishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Birinchi, Ularning gnosiologik mohiyatiga e'tibor berish lozim. Ular qanday kelib chiqqan va nimalarga nisbattan qo'llanilganda ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, urf-odat va an'ana tushunchalarini tabiat yoki

---

<sup>1</sup>Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002. –B. 8 .

hayvonot olamiga nisbattan qo'llash mumkinmi? Agar ularga nisbattan qo'llaydigan bo'lsak, u ilmiy va amaliy jihatdan aniq ma'no va mazmun kasb etmaydi. Demak ularning kelib chiqishi, shakllanishi inson, millat xalqning ongli faoliyati ayni paytda ular orqali jamiyatning ham ijtimoiy mahsuli hisoblanadi;

Ikkinchidan, urf-odat, an'ana ongli faoliyatning hosilasi ekan, demak, u inson, millat, xalqning dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy kamolotining ifodasi hamdir. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, urf-odat, an'ana va qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'ladigan omillar emas, balki, inson, millat, xalq va jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanib boradi. Ayni paytda insonni, millat, xalq va jamiyatni ham aniq "shakllantiradi", rivojlantiradi hamda takomillashtiradi. Ular o'rtasidagi ana shu mustahkam uzviylik anglanilgandagina urf-odat, an'ana va qadriyat tushunchalarining ma'no-mohiyati shuningdek nafaqat turli ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini anglab yetish mumkin bo'ladi.

Uchinchidan, urf-odat, an'ana va qadriyat tushunchalarining zaminida uzoq vaqt tarixiy-tadrijiy (evolyutsion) jarayon turishini e'tiborda tutish lozim bo'ladi. Ular ana shu jarayonning "mevasi" hisoblanadi. Shunday ekan, ularda avlodlarni ajdodlar bilan bog'lab turadigan, ma'naviy meros vazifasini ham o'taydilar. Merosi boy bo'lgan inson, millat, xalq va jamiyatning kelajagi ham porloq bo'ladi. Chunki, meros zaiflikda suyanadigan suyanchiq, quriladigan jamiyat poydevori. Har bir tarixiy bosqichda shakllanadigan yangi avlodlar uchun ijtimoiy-madaniy meros ma'naviy-ruhiy ozuqa manbai hisoblanadi. Demak bu tushunchalarda o'tmish bilan zamonaviylikning uzviy bog'liq, mujassam ekanligini hisobga olish zarur bo'ladi.

Shunday qilib, tadqiqotimizdan kelib chiqqan holda milliy urf-odat va an'analarga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Milliy urf-odat millatning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, uning turmush tarziga singib ketgan o'ziga xos estetik ehtiyojlarga moslashgan go'zal xulq atvori, qoida ko'nikma, hatti-harakat me'yorlari va ma'naviy-insonparvar g'oyalarning amalda ifodalaydigan tushunchadir.

Albatta berilayotgan bu ta'rifni mukammal deb bo'lmaydi, uni yana ham takomillashtirish lozim bo'ladi. Lekin, unda eng muhim uchta omilga ustuvorlik berilganligini, jumladan:

- uning tarixiy taraqqiyot bilan uyg'unligi;
- millatning turmush tarziga singib ketganligi;
- millatning ma'naviy-ruhiy estetik boyligining muhim qismi kabilarni qo'shimcha qilamiz.

Fikrimizcha shu uchta muhim jihatlar milliy "urf-odat"ning ma'nomazmunini to'laroq anglashga yordam beradi. Ko'rsatilgan uchta qirrada urf-odatning milliy-manaviy merosning tarkibiy qismi ekanligini bu o'z navbatida uning nisbattan konservativ holatini va ayni paytda evolutsion tarzda rivojlanib borishni ham o'zida ifoda ettirgan.

Milliy "an'ana" tushunchasiga tushunchasiga to'xtalib shuni aytish mumkinki, u ham millat shakllanish jarayonida yuzaga keladi, amalda uning turli hodisa voqea va jarayonlarga bo'lgan munosabatlarida o'z ifodasini topadi. "An'ana" tushunchasining "urf-odat"dan farqli tomoni shundaki, unda "vositachilik" mohiyat ustuvorlik qiladi. Ya'ni, uni millatning u yoki bu jihatiga nisbattan qo'llanilganda uning ijtimoiy xarakterdagi vositachilik (bog'lovchilik) imkoniyatiga ega ekanligini nazarda tutiladi. Jumladan:

- Millatni ajdodlardan qoldirilgan meros bilan bog'laydi;
- "An'ana" qamrov jihatidan milliy urf-odatga nisbattan keng bo'lib, u nafaqat keng ma'nodagi milliy-ma'naviy boylikning o'ziga xosligini, shuningdek, milliy faoliyatning barcha qirralarini ham qamrab oladi. Buni aniqroq tasavvur etish uchun "mehnat an'analari", "shanbalik an'analari", "oila an'analari", bag'rikenglik an'analari va shunga o'xshash boshqa unutilmas an'analarni keltirish mumkin;
- "an'ana" tushunchasida ijtimoiy vorislik ham o'z ifodasini topgan. U zamonaviy milliy manaviyatning ajdodlar ma'naviy merosi bilan o'zaro munosabatlarini "aniqlashda" ham muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni, bu tushuncha orqali milliy taraqqiyotga qaysi an'analarni ijobiy qaysilari milliy

taraqqiyotga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligini, ularning ma'no mazmuni, taraqqiyot talablariga hamohang ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, milliy an'ana tarixiy taraqqiyot jarayonida millatning ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotlarida o'tmishda sodir bo'lgan, millatning aksariyat ko'pchilik qismi tomonidan qabul qilingan barcha, ijobiy yutuqlarni buguni bilan bog'lab turuvchi hamda har bir taraqqiyot bosqichida ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi yuridik jihatdan yozilmagan, odat qonunchiligi(обычноe право)ga asoslangan va ma'naviy omildir.

Ehtimol, berilayotgan bu ta'rif ham milliy an'ana tushunchasining barcha qirralarini qamrab olmas, lekin, unda ayrim shaxs, oila, jamoa hatto, davlat hayotidagi an'anaviy muhim qirralari bo'yicha ilgari surilgan g'oyalarimizga asoslandik. Bundan tashqari, yuqorida turli mualliflar tomonidan berilgan ta'riflarda "an'ana"ga tor ma'noda qarashlar ustuvorligini ko'rgan edik. Ya'ni, uni "ma'naviy meros", "madaniy meros elementlari", "vosita", "inson faoliyatining ...ma'naviy jihatlari" va ko'rinishlarda turli mualliflarning qarashlar mavjudligini keltirgan edik. Bizning fikrimizcha, umuman "an'ana" jumladan "milliy an'ana"ni yuqoridagi ko'rinishlarda ta'riflash uning ma'no-mazmunini to'liq ochib berilmaydi. Chunki, "an'ana" faqat ma'naviy hayotda amal qiladigan omil emas, balki, uning qamrovi nihoyatda keng bo'lib, u jamiyatning barcha sohalarini jumladan, oilaviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarini ham o'ziga qamrab oladi. Agar ularni konkretlashtiradigan bo'lsak, bu fikr o'z tasdig'ini tapadi. Milliy ma'naviy hayotdagi an'analar shaxsiy hayot va oila muqaddasligi, turli tuy maraka o'tkazish, mehmon kutish, kattaga hurmat, kichikka izzat jamoatchilik fikrining ustuvorligi va boshqa bir qator axloqiy (ular nihoyatda bisyor) an'analari mavjud bo'lsa, iqtisodiy hayotda tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatni ulug'lash, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik va boshqalarni keltirish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy sohada mavjud bo'lgan an'analarga milliy davlatchilik, qonunlarga itoatkorlik, millatlar va dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni qadrlash, demokratik qadriyatlarga moyillik, umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish va boshqa bir qator hodisalarni kiritish mumkin.

Keltirilganlardan ayon bo`ladiki, miliy an`analar milliy taraqqiyotning barcha sohalarini o`z ichiga qamrab oladi. Bundan tashqari, ta`rifda uni moddiy va ma`naviy omil (faktor) sifatida qaradik. Buning asosi shundaki, “meros”ga nisbattan mazmunan kengroq tushuncha buning turli jarayonlarda amal qilishi va ularga ta`sir ko`rsatish salohiyatini “kuchliligini” ifoda ettiradi. Yuqorida an`anaga berilgan ta`rifda yana bir muhim g`oya o`tmishdan meros bo`lib kelgan barcha moddiy va ma`naviy narsalar emas, balki, faqat ijobiy yutuqlar va ularning millat vakillarining aksariyat ko`pchilik qismi qismi tomonidan qabul qilingan ayrim hodisalarni “an`ana” deb ko`rsatdik. Bunda bir tomondan an`analarning o`zgarib va boyib borishi, ikkinchi tomondan millat vakillarining aksariyat ko`pchiligi tomonidan qabul qilinmagan qismining “iste`moldan” chiqib ketish g`oyasi o`z ifodasini topgan. Prezidentimiz Islom Karimov milliy g`oyaning xususiyatlari haqida shunday deydi: “... u millatimizning, xalqimizning o`zligini anglashga, o`zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo`qotmasdan, ularni tiklab, avaylab e`zozlab, yangi o`sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qilishi kerak.”<sup>1</sup>. Keltirilayotgan vazifadan ko`rinib turibdiki, urf-odat, an`analar har doim ham milliy ma`naviy manbasi hisoblanadi.

An`ana haqida fikr yuritganda uning har bir xususiyati shundaki, u ikki yo`nalishda: bir tomondan milliy taraqqiyotning ehtiyoji sifatida “tabiiy” ravishda bir tarixiy bosqichdan ikkinchisiga o`tib boradi. Chunki, bunday an`analarsiz millatning o`zi ham to`laqonli millat bo`la olmaydi. Ular millat butunligini ta`minlaydi va uning “qiyofa”sini o`zida ifodalaydi. Shuning uchun ham milliy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ehtiyoj darajasida amal qiladi va mentalitetning butun tizimiga singib ketadi. Ular har qanday sharoitda va taraqqiyot bosqichlarida “o`lmaydi”, balki doimo takomillashib boraveradi, ikkinchi tomondan har bir tarixiy taraqqiyot millati taraqqiyotga ijobiy ta`sir o`tkaza oladigan yangi an`analarni yaratib, millatning o`zi shakllantirib boradi. Bu jarayon juda murakkab kechadi. Chunki, har qanday yangi “an`analar” ham qisqa

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qo`rilishida biz uchun ruhiy-ma`naviy kuch-qudrat manbai // Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – Toshkent: O`zbekiston, 2000, -b 466.

vaqt ichida millat vakillarining aksariyat ko'pchiligi tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Buning uchun ma'lum vaqt talab etiladi va uning ijobiy natijalari davr sinovidan milliy taraqqiyotda o'zining ifodasini topishi lozim bo'ladi. Ya'ni "an'analarni" hukumat tomonidan qonunlar yoki qarorlar bilan bir zumda millatning aksariyat ko'pchiligiga qabul qildirib, ularning mulkiga aylantirib bo'lmaydi. Bu jarayonda qabul qilinadigan qaror va qonunlarning; a) milliy ma'naviy salohiyati va ehtiyoji qay darajada javob berishi; b) ularning tarixiy taraqqiyot bosqichi bilan uzviyligi (hayotiyiligi) amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, sho'rolar hukmronligi sharoitida hukumat tomonidan o'zbek xalqining bir qator diniy va milliy an'analarga zid ravishda qabul qilingan qarorlari va qonunlari "ishlamaganligini" bugungi zamondoshlarimiz ham biladi. Ular yuzaki go'yo amal "qilganday" ko'rinsa ham real hayotda millatdoshlarimiz ularni qabul qilmadilar va aksincha o'tmishdan avlod-ajdodlarimiz tomonidan meros bo'lib kelgan an'analarni zimdan bo'lsa ham saqlab keldilar, ularga amal qildilar va rivojlantirdilar. Bu ko'pchilik tomonidan qabul qilingan milliy an'analarning umrboqiyiligini tasdiqladi va yangi an'analarni shakllantirishda ularni milliy ma'naviy zaminlar bilan bog'liq holda har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida milliy mentalitetga xos bo'lgan jihatlarini hisobga olish zaruratini ko'rsatdi.

Urf-odat, an'ana, qadriyatlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini hisobga olib prezidentimiz Islom Karimov quyidagicha ta'kidlagan edi: "Biz avvalgi tuzumning qadriyatlarini shunchaki inkor etishning hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'lmagan siyosiy va madaniy ekstrimezm xavfini tug'dirishni anglar edik. Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analarga va turmush tarziga betaraf ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka – hozirgi davrni qabul qilmaslikka jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin"<sup>1</sup>.

Haqiqatdan ham Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan har ikkala holatning murakkab jihatlar mavjud. Bu ayniqsa, sobiq sho'ro tuzumining milliy

---

<sup>1</sup> Karimov.I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari// Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. –B. 126.

urf-odat, an'nalar va qadriyatlarni toptalishiga qaratilgan siyosatning olib borilgan sharoiti uchun o'ta murakkab ekanligini ko'rish mumkin. Chunki olib borilgan ana shu siyosat tashqaridan qaraganda o'zbek millatining o'z odat, an'ana va qadriyatlardan "begonalashuvi" sodir bo'lgan bo'lsa ham "ichkarida" real hayotda millatimiz vakillari ularga amal qilib keladilar. Bundan tashqari olib borilgan siyosat aks munosabatlarning tiklanish uchun zamin tayyorlashiga ham olib keldi. Ya'ni, millatimiz o'z urf-odat, an'ana va qadriyatlardan voz kechmadi, balki unga nisbattan ehtiyoji oshib boraverdi. Chunki, tuzum joriy qilmoqchi bo'lgan urf-odat, an'ana va qadriyatlar milliy ma'naviy ehtiyojning o'rnini bosa olmadi, aksincha ular milliy ma'naviy zaminlarga intilish ruhiyatini kuchaytirib boraverdi. Buning real natijalari mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin milliy-ma'naviy tiklanishning boshlang'ich bosqichida Sho'ro hukmronligi sharoitida topilgan urf-odat, an'ana va qadriyatlarning ijobiy va salbiyligini yoppasiga bir zumda shiddat bilan ishtiyoqi hamda ruhiyatning ommaviylashib ketishiga olib keldi. O'z navbatida, jamiyat va millatimiz hayotida salbiy oqimlarning kirib kelishiga berdi.

Bu paytda yuzaga kelgan vaziyatdan turli guruhlar, siyosiy kuchlar, g'oya va mafkura tarafdorlari o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qila boshladilar. Jumladan, prof. A.S.Ochildiyevning ta'kidlashicha, "Hozirgi kunda til, madaniyat, urf-odatlardagi umumiylik boshqacha aytganda, etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni yuzaga keltirish borasidagi qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlarning shakllanish ta'rifi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda ularning har biri dunyoning mafkuraviy manzarasida muayyan o'rinni egallashga urinmoqda. Panslavyanizm, panturkizm kabi g'oyalar shular jumlasidandir"<sup>1</sup>.

Bunday g'oyalarning xatarli tomoni shundaki, milliy urf-odat an'analar yaqinligi omilidan samarali foydalanib, ular endigina mustaqillikni qo'lga kiritib milliy tiklanish yo'lidan borayotgan millatlar g'oyaviy va mafkuraviy hukmronlikni o'rnatishdek g'arazli harakatlarni amalga oshira boshlagan edilar.

---

<sup>1</sup> Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O'zbekiston, 2004, -B. 45.

Shu ma'noda ham urf-odat, an'ana va qadriyatlar nafaqat millatning "men"ligini ifodalovchi omil, shuningdek, u bugungi kunda jahon mafkuraviy maydonida ustuvorlikni qo'lga kiritishga bo'lgan kurash omili hamdir.

Urf-odat va an'analarni ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi o'rnini tahlil qilar ekanmiz: a) milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar bilan ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi? b) ijtimoiy-madaniy faoliyatda urf-odat, an'ana va qadriyatlarning o'rnini qanday? degan savollarga javob izlashimiz lozim bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatda "mentalitet"ning o'rnini juda muhim. Mentalitetning esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, shakllari bisyor, gap milliy mentalitet haqida ketganda, albatta, uning tizimini tashkil qilgan urf-odat, an'ana va boshqalar nazarda tutiladi. Ularsiz milliy mentalitet haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Chunki, urf-odat, an'ana va qadriyatlar millatning ijtimoiy jamoa sifatida uzoq davrdagi shakllanishi jarayonida, uning ongi, tafakkur yuritishi, turmush tarzi, hayot kechirishi, hatti-harakatlari keng ma'nodagi ijtimoiy hayotdagi munosabatlarning innikosi sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham ular milliy mentalitetga "hazm" bo'lib singib ketadi:

Birinchi, urf-odat, an'ana va qadriyatlar mentalitetga qiyofa bag'ishlaydi. Ya'ni u yoki bu millatning urf-odat, an'ana va qadriyatlari "shakl" va "mazmun" jihatdan mentalitetda o'z aksini ifoda ettiradi. Shakl urf-odat, an'ana va qadriyatlar mentalitetning "tashqi" ko'rinishini tashkil qilsa, millatning ma'naviy-ruhiy o'ziga xosligi va salobati uning "ichki" mazmunini ifoda ettiradi. "Shakl" va "mazmun" uyg'unligining mustahkamligi mentalitetning milliylikiga kuch, quvvat bag'ishlab turadi. Millat maentalitetdagi tashqi ta'sirlarni qabul qilishga bo'lgan "moyillik" yoki aksincha, ularga qarshi kurash immunitetining kuchliligi eng avvalo, mentalitetda o'z ifodasini topadi.

Ikkinchi, mentalitetdagi "konservativ" xususiyatni hukmron tuzum va amaldagi davlat hukumati tomonidan uni zo'rlik bilan milliy hayotga joriy qilish uni o'zgartirib bo'lmaydi. Uni "o'zgartirish" yoki takomillashtirish uchun eng avvalo, zamon talablari va unga mos ravishda yuzaga keladigan milliy-ma'naviy

ehtiyojlarga qarab yangi urf-odat, an'ana va qadriyatlarni ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich milliy taraqqiyot darajalariga mos holatda zo`ravonlik yo`li bilan emas, balki milliy rivojlanishning ob'yektiv qonuniyatlari asosida tabiiy jarayon sifatida millat hayotiga "hazm" bo`lib singib ketishiga imkoniyat yaratilishi lozim bo`ladi.

Uchinchidan, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining "o`zgarishi" yoki "takomillashuvi" o`z-o`zidan sodir bo`ladigan jarayon emas, ular yuqorida ta'kidlanganidek, ikki yo`nalishda: amaldagi hukumat tomonidan olib boriladigan milliy siyosat va milliy ma'naviy ehtiyojning o`sib borishi natijasida amalga oshishi mumkin. Bu jarayonda yana bir omilning rolini ham hisobga olish lozim bo`ladi. U ham bo`lsa, millatning ilg`or qatlamidir. Ular ana shu ikki yo`nalishda: urf-odat, an'ana va qadriyatlar takomillashuviga yetakchilik qiladilar. Millatning ilg`or qatlami deganimizda uning ma'naviy-g`oyaviy jihatdan boshqalarga nisbattan taraqqiy qilgan intellektuallari nazarda tutiladi. Ular millat ma'naviy hayotiga kirib keladigan yangi urf-odat, an'ana va qadriyatlar avval boshqalarga nisbattan oldinroq o`z turmushlarida, oila, jamoa va turli jamoat tashkilotlarida joriy qilishga yetakchilik qiladilar.

Mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgandan keyin milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizni qayta tiklashga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, mustaqilligimiz sharofati bilan qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida milliy mentalitetimizga xos bo`lgan ana shu odatlarimiz qonun bilan belgilab qo`yildi. Konstitutsiyamizning "64-moddasida ota-onalar o`z farzandlarini voyaga yetkazgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar..."<sup>1</sup>.

Konstitutsiyaning 66-moddasida: "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o`z ota-onalari haqida g`amxurlik qilishga majburdirlar".

Konstitutsiyamizda kiritilgan ana shu moddalar bejiz emas, balki hayotiy zaruriyat tufayli kiritildi. Chunki, sobiq Sho`ro tuzumi sharoitida kadrlarni barbot qilishga qaratilgan siyosatning olib borilishi natijasida oilaviy qadriyatlarga putur yetkazildi. Ayrim ota-onalar o`z farzandlarini tashlab ketishi, o`z navbatida

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 2013. –B. 12.

farzandlar ham ulg`ayganlaridan keyin ota-onalarga g`amxurlik qilish o`rniga ularni keksalar uyiga olib boradigan hollari yuzaga keldi. Bu salbiy holat asta sekinlik bilan bo`lsa ham milliy mentalitetga “singib” bora boshladi. Shuning uchun ham uning oldi olinmasa milliy qadriyatlarimizning eng insonparvar xususiyatlaridan biridan mahrum bo`lib qolish xavfi yuzaga kelgan edi.

Shuning uchun ham konstitutsiyamizga ana shu ikki moddaning kiritilishi xalqimiz tomonidan qo`llab qo`vvatlandi. Chunki, u milliy mentalitetimizga xos bo`lgan odatlarimizdan biri hisoblanadi. Uning qonun bilan yana qayta tiklanishi esa urf-odat, an`ana qadriyatlarimizning umrboqiyiligini ta`minlashga xizmat qiladi.

Prof. U.X.Qoraboyev ta`kidlaganidek, “Asrlar davomida avloddan-avlodga o`tib an`anaga aylangan: bahorgi-qurultoy, gul bayramlari navro`z; yozgi suv sayli, choymomo; kuzgi - uzum sayli, qovun sayli, paxta tuyi, anor sayli, anjir sayli; qishki – yas yusun, gap-gashtak, qor xati kabi marosimlar va bayramlar dehqonlar hayoti, turmushi, mavsumiy mehnat jarayonida va ma`naviy olamida samarali shakl kasb etib, ularning mazmuni yoshlarning ekologik ongini ravnaq toptirish, tabiat boyliklarini qadrlash, yil fasllarida vujudga keladigan go`zalliklaridan zavqlanish, mehnatning qadriga yetish, insoniylikni ulug`lash kabi funksiyalarni bajarishda yaxshi xizmat qilgan”<sup>1</sup>.

Shunday qilib, yangi sharoitda urf-odat va an`analarning ijtimoiy madaniy faoliyatda namoyon bo`lishi quyidagicha:

Birinchi, ularning millatimiz shakllanishi jarayonidagi hayot kechirish, turmush tarzi, mehnat faoliyati tafakkur yuritish shart-sharoitlari va faol hayotiy xususiyatlari bilan bog`likligida. Shuning uchun ham ular millatimiz ongi, qalbi va tafakkurini mahsuli sifatida hozirda ijtimoiy-madaniy faoliyatda mustahkam o`rin olgan va madaniy faoliyatga “qiyofa” bag`ishlab kelmoqda;

Ikkinchi, ijtimoiy-madaniy faoliyatda urf-odat va an`ana mentalitet orqali namoyon bo`ladi. Bunda urf-odat va an`ana mentalitetda o`z ifodasini topishini ikki ko`rinishda tasavvur etish mumkin: a) urf-odat va an`analar amalyoti

---

<sup>1</sup> Qoraboyev U.X. O`zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 15.

orqali millatning “qiyofasi” namoyon bo`ladi. Ularning amal qilishi millatga xos bo`lgan xususiyatlarni yuzaga chiqaradi va bu o`z navbatida “Milliy mentalitetning” “tashqi” ko`rinishi o`zida ifoda ettiradi. Ya’ni ularning amal qilishi orqali mentalitetda mavjud bo`ladigan xususiyatlari yuzaga chiqadi; b) milliy mentalitetning “ichki” mazmuni ham mavjud bo`lib, u millat ma’naviy-ruhiy o`ziga xosligi va salobatini tashkil qiladi. Mentalitetdagi “ichki” va “tashqi” ko`rinishdagi muvozanat milliy xususiyatlarning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir o`tkazadi;

Uchunchidan, o`zbek mentalitetiga xos bo`lgan xususiyatlar urf-odat va an’analarning amal qilishi orqali namoyon bo`ladi. Bu esa ijtimoiy-madaniy faoliyatda ham ko`rinishi mumkin. Bu turli xil festivallarda, bayramlarda ko`rinadi. Ular o`zbeklarning kundalik hayoti, turmush tarzi, ongi va tafakkurda turli jarayonlarga munosabatlari, hatti-harakatlarida o`z ifodasini topadi.

Urf-odat va an’analarning ijtimoiy-madaniy faoliyatda namoyon bo`lishi millatning ma’naviy-ruhiy qudratini mustahkamlashda hamda uning o`ziga xos nufuzining oshib borishiga xizmat qiladi.

## **2.2. Ijtimoiy – madaniy faoliyatni milliy mental xususiyatlar orqali takomillashtirish imkoniyatlari.**

Jamoat tashkilotlarining milliy mustaqillik sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga yo`naltirilgan faoliyatlarining asosiy maqsadi va vazifalari Prezidentimiz asarlarida<sup>1</sup> mukammal bayon etilgan bo`lib, bu fikrlar davlat va millat kelajagini belgilovchi ilg`or g`oyalarni o`zida mujassamlashtirgan.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning rivojlanishida jamoat tashkilotlarining roli masalasi ko`pgina o`zbek olimari tomonidan falsafa, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o`rganilgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent: O`zbekiston, 1996; Karimov I.A, O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo`nalishlari. Toshkent: O`zbekiston, 1996; Karimov I.A, O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li Toshkent: O`zbekiston, 1996; Karimov I.A, Halollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezon bo`lsin. Toshkent: O`zbekiston, 1996 va h.k.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlari bevosita aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, turli-tuman shaklda voqea bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat quyidagi umumiy jihatlari bilan ajralib turadi:

a) u faqatgina ustun rivojlangan madaniy faoliyatga borib taqalishi mumkin emas;

b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyatning yetakchi tamoyili hisoblanadi;

v) madaniy qadriyatlar yaratish va ommalashtirish ijodiy jarayon bo'lib, unda sustgarchilikka yo'l qo'yilmaydi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra kommunikativ faoliyat hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat – bu jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Qishloqlardagi jamoat tashkilotlari esa shaxsni madaniy faoliyatga jalb etishga yo'naltiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatga nisbatan bunday yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, madaniy faoliyatda sub'ekt sifatida jamoat faoliyatining namoyondasi hisoblanuvchi alohida shaxs emas, balki jamoa, birlashma, madaniy uyushma yoki keng xalq ommasi o'rtasida ma'naviy faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlari belgilanadi. Ayni paytda jamoat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ular bilan individual ijodiy faoliyat birligiga bog'liqligini ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etilishini shaklga ko'ra ham tasniflash mumkin: jamoa va individual madaniy faoliyat. Madaniy faoliyat sub'ekt xususiyatlariga ko'ra individ, guruh, uyushma, jamoa tashkilotlari faoliyati kabi turlarga bo'linadi. Madaniy faoliyatni amalga oshiradigan guruhlar tabiatiga ko'ra u oilaviy, xizmatdoshlar va boshqa turlarga bo'linadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat turlari hamda ularni tashkil etish shakllari tasnifi xususida to'xtlaganda ta'kidlash joizki, madaniy faoliyatning shaxsiy va institut shakllarida ijodiy saloiyat bir xil darajada amalga oshishi mumkin emas. Ijodiy reja mazmuniga muvofiq faoliyatning u yoki bu shakli belgilab olinadi. Jamiyatda demokratiyalash jarayoni kechayotgan hozirgi bosqichda madaniy faoliyatni

rivojlantirishning tashkiliy (institutlar darajasida) sohada shaxsiy shakllari keng ommalashib bormoqda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat ishtirok etuvchi sub'ektlar tabiatiga ko'ra individual, guruhli va ommaviy kabi shakllarga ajratiladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning har bir turiga muayyan shakl mos keladi. O'qish, amaliy san'at asarlari bilan tanishish san'at asarlarini umumlashtirishning individual shakli hisoblanadi. Badiiy ijrochilik, turizm va havaskorlik ijodiy birlashmalari badiiy qadriyatlarni ommalashtirishning guruhli shakli hisoblansa, spektakllar, filmlar, konsertlar tomosha qilish va bayramlarda ishtirok etish madaniy faoliyatning yuqorida bayon qilib o'tilgan individual, guruhli va ommaviy shakllari muayyan madaniy an'analarning uyg'unligini nazarda tutadi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarni olib borish va dam olishni tashkil etish kabi vazifalarni alohida ajratib ko'rsatish zarur. Chunki madaniy faoliyatning mazkur yo'nalishlari qishloq ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq jamoat tashkilotlari pedagogik tizim sifatida xalqqa eng yaqin turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Ular faoliyati orqali aholining madaniy va ma'naviy saviyasi o'sib boradi. Natijada aholi o'zining ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsalarda, ular o'zaro aloqadorlikda ish olib boradilar. Ularning faoliyatidagi mushtaraklik maqsadning umumiyligida (huquqiy demokratik davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini rivojlantirish), vazifa va mazmunning mushtarakligida namoyon bo'ladi. Har bir tashkilotning o'ziga xos xususiyati esa tarbiyaning muayyan shakli, uslub va vositasini qo'llashda ko'zga tashlanadi. Qishloqda aholi estetik ehtiyojini qondiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatning turli-tuman shakllaridan, xususan, radioeshittirish, teleko'rsatuv, kino, fan va madaniyat arboblari bilan uchrashuv, suhbat, maslahat va boshqalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Axborot manbalari tizimida ro'znoma, radio va televidenie asosiy o'rinni egallaydi. Jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar axborot

manbalari orasida oltinchi o'rinni egallaydi. Ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotning dastlabki bosqichi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi arafasida olib borildi. Tabiiyki, ko'p yillik mafkuraviy qullikda yashagan xalqimiz madaniy hayoti ham o'sha davrda sho'rolar siyosati iskanjasida edi. Bunday inqirozli vaziyat qishloq aholisi madaniy faoliyatining turlari va manbalariga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham o'z ifodasini topgan.

Davlat va jamoat tashkilotlarining diqqat markazida, asosan moddiy ishlab chiqarish masalalari ustivor ahamiyat kasb etgani holda qishloq madaniyatini rivojlantirish muammolariga (garchi qishloq aholisi uchun ularning zarurligi ta'kidlab turilsada) kam ahamiyat berib kelinganligini ko'rsatdi. Qishloq mehnatkashlarining e'tirof etishlaricha, madaniy faoliyatning, asosan xalq ijodiyoti, professional hamda havaskor jamoalarning chiqishini tashkil etish kabi turlariga katta e'tibor berilib, shundan so'nggina ishlab chiqarish va texnika targ'ibotiga ahamiyat berib kelingan. Lekin qishloq aholisi madaniy faoliyatning boshqa shakl va uslublariga nisbatan befarq emas. Madaniy faoliyatning mavzuli kechalar, savol-javob kechalari, mutaxassislar kuni bayram, marosim kabi shakllari ham samaralidir.

Jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlari muammosiga bag'ishlangan nazariy manbalar hamda O'zbekiston Respublikasi hukumatining ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish borasidagi hujjatlarini o'rganish asosida olib borilgan tadqiqotlar davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirish borasida faoliyatlarning uslubiy tizimini ishlab chiqishda muhim nazariy ahamiyat kasb etdi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining aholi madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatlari tizimi – bu qishloqda madaniyatning shakllanishi, saqlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek, aholining madaniyatini rivojlantirishdagi yuqori ijtimoiy faolligiga erishish mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifa tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasidan iborat jarayon bo'lib, davlat,

xo`jalik va jamoat tashkilotlarining o`zaro hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshiriladi.

Tizim tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Davlat va jamoat tashkilotlarining qishloq ma'naviy madaniyatini rivojlantirish borasidagi faoliyatlari.

2. Davlat va jamoat tashkilotlarining moddiy o`zgartiruvchanlik va yaratuvchanlik borasidagi madaniy faoliyatlari.

Aholi madaniyatini rivojlantirishning rejalashtirilayotgan darajasiga erishish butun aholi va har bir shaxs madaniy saviyasining o`ssishi bilan bevosita bog`liqdir. Tizimni ishlab chiqishda jamoat tashkilotlarining qishloqda olib borayotgan madaniy faoliyatlarining hozirgi holatini tahlil etish, qishloqdagi moddiy-madaniy va sport-sog`lomlashtirish muassasalari miqdorini aniqlash hamda sotsiologik tadqiqotlar olib borish nazariy asos bo`lib xizmat qiladi.

Hozirgi paytda qishloq turmush tarzini rivojlantirishga yo`naltirilgan madaniy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy rivojlanishga bo`lgan talablari va shaxsning ma'naviy komillikka bo`lgan ehtiyojlarini qondirish mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu orqali madaniy faoliyat tizimida jamoat tashkilotlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish, moddiy madaniyat yodgorliklari zaxirasini boyitish, madaniyat xodimlari va muassasalarini tashkil etish mumkin bo`ladi. Tizimning maqsadi jamoat tashkilotlari, alohida shaxs va butun qishloq aholisining madaniy faoliyatini oshirishdan iboratdir. Jamoat tashkilotlari madaniy faoliyatlarining mazkur tizimdagi predmeti madaniy qadriyatlar, ya'ni ma'naviy boyliklarni bunyod etish va o`zlashtirish, saqlash va targ`ib etishni o`z ichiga oladi.

Bozor munosabatlariga o`tish bosqichi aholi madaniyatining rivojlanishini rejalashtirishda, dasturlash hamda yangicha yondoshuvni joriy qilishni talab etadi. Chunki busiz ijtimoiy va madaniy jarayonlarni boshqarish mumkin emas.

Jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtiroki tizimini ishlab chiqish tajribasi quyidagilarga asoslanadi:

a) O`zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi arafasida qishloqda madaniy faoliyatning mavjud holati;

b) Mustaqil O`zbekistonning yangi sharoitda yuzaga kelgan madaniy faoliyat imkoniyatlari;

v) Qishloq aholisining madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning yangi usul va zahiralari mavjudligi.

Davlat va jamoat tashkilotlari ijtimoiy-madaniy faoliyatlarini tashkil etish uchun uning tizimiy me'yorlari aniqlandi:

1) qishloq aholisining u yoki bu madaniy tadbirlarga jalb etilganligi;

2) u yoki bu turga mansub madaniy faoliyatning izchilligi;

3) bo`sh vaqtni ko`ngilli o`tkazishning miqdoriy va sifat ko`rsatkichlar.

Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlari mazmuni har bir kishi o`zining bo`sh vaqtida tadbir va mashg`ulotlarning muayyan bir turini tanlashi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U shaxs rivojida bir xillik va me'yoriylikni nazarda tutmaydi. Faqatgina muayyan tadbirni tanlash erkinligi shaxs ma'naviyatining izchil rivojlanishini belgilab beradi. Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlari o`z mazmuniga ko`ra aholining umumiy madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo`lib, quyidagilarni hisobga oladi:

a) umumiy madaniy ehtiyojlarnig rivojlanish istiqbollari;

b) aholining madaniyat sohasidagi ijodiy faoliyatlari uchun yetarli sharoit yaratish.

Davlat va jamoat tashkilotlari ijtimoiy-madaniy faoliyatlarining turlarini yaxlitlashtirgan holda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Faoliyat vaqti va shaklini shaxsning o`zi tanlaydigan madaniy faoliyatning uy turi.

2. Klub, kutubxona, muzey, ko`rgazma va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalarda amalga oshiriladigan uydan tashqaridagi faoliyat turi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining mazkur tadbirlarni amalga oshirishga yo`naltirilgan faoliyatlari uning samaradorligini muntazam ravishda oshirishni nazarda tutib, hamkorlikda ishlashga qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari tarkibi shakllanib, faoliyat ko`rsatmoqda. Uning asosiy turlari:

- jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, partiyalar, ijodiy uyushmalar, jamg`armalar va boshqalar);
- xalq xavaskorlik jamoalari, mahalla qo`mitalari va boshqalar.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy ishlarini rivojlantirish borasidagi madaniy faoliyatlari tizimi mazmunini ishlab chiqishda quyidagi omillar asos qilib olinadi:

a) Respublikamizda aholi barcha qatlamlarini ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga keng jalb etish; demokratiya jarayonlarini jadallashtirish, turg`unlik davri qoldiqlarini bartaraf etish; milliy madaniyatni, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish ishlari olib borilayotganligi, Vatanga sodiqlik, el-yurtga muhabbat, yuksak ma'naviylik sifatlarini shakllantirgan o`z harakati va qarorlariga javob bera oladigan faol fuqaro pozitsiyasida turuvchi kishini siyosiy madaniyatli shaxs deb hisoblash mumkin.

b) umumahamiyatga molik vazifalarni hal etishga qaratilgan xalq ijodiyotini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi; davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga to`g`ri pedagogik rahbarlik qila olishi buning asosiy zamini hisoblanadi. Pedagogik rahbarlik vaziyatni, bilim va ko`nikmalarni oqilona uyg`unlashtirishni nazarda tutadi. Davlat va jamoat tashkilotlari xalq o`rtasida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy muloqotlar asosida shaxsning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshiruvchi vositaga aylanadi, shuningdek, jamiyat tafakkurining shakllanishida ham faol ishtirok etadi.

v) hozirgi davrda qaxvaxonalar, videosalonlar, studiyalar, o`yin xonalari musiqa va sport anjomlarini ijaraga berish. Oilaviy tantanalarni o`tkazish bo`limlarini tashkil etish orqali aholining pullik xizmatga bo`lgan talabini qondirish mumkinligi.

g) bozor iqtisodiyoti sharoiti va munosabatlari madaniyati moddiy-texnika salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlashda mahalliy korxonalar yordamida va homiylar ko`magidan kengroq foydalanishni talab qilayotganligi.

Davlat va jamoat tashkilotlari o'z madaniy-ijodiy faoliyatlarini dam olish vaqtida amalga oshiradilar. Dam olish faoliyati o'z navbatida shaxsnig mustaqil ijodiy salohiyatining amalga oshishiga ko'mak beradi, shuning uchun ham u qiziqarli, aqliy va ruhiy jihatdan boy bo'lishi lozim.

Shu jihati bilan u havaskorlik ijodiyotidan farqlanadi va keng xalq ommasini o'ziga jalb qiladi. Ijtimoiy-madaniy muassasalar qoshida va ulardan tashqarida badiiy uyushmalar, kolleksioner va texnik ijodkorlar jamiyatlari, oilaviy hamda o'smirlar sport klublari va birlashmalari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatadi. Ushbu ijodiy birlashmalar faoliyati xalqning qiziqarli tadbir hamda muloqotga bo'lgan ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan.

Davlat va jamoat tashkilotlari qishloqdagi barcha madaniy-ommaviy tadbirlarni madaniyat uylari va saroylari orqali amalga oshiradi.

Klub jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib borib, ular faoliyatini muvofiqlashtiruvchi manbaga aylanadi, ular bilan birgalikda ijtimoiy-madaniy muassasalar o'z faoliyatini quyidagi shakllarda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi:

- qishloq madaniyatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi, ekologik tarbiya, huquqiy madaniyat va boshqa dolzarb masalalar yuzasidan jamoat fikri minbari vazifasini bajarish.

Xulosa qilib aytsak, madaniyat kishilarning ijtimoiy yaratuvchanlik jarayonidagi ishtirokining me'yori hamda shaxs ijodiy salohiyatini faollashtirish vositasi hisoblanadi. Madaniyat ijodiy faoliyat sifatida ko'pgina bilim va tajribalarni egallashni, ulardan faoliyatning turli shakllaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi sharoitida siyosiy madaniyat ijodiy faoliyat sifatida tushuniladi va bu faoliyat natijasi mintaqaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni, respublikamizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy-demokratik davlatni barpo etishdan iborat.

Madaniyat tarkibini tahlil etish davlat va jamoat tashkilotlarining madaniyatini rivojlantirish borasidagi faoliyatlarining asosiy yo`nalishlari hamda mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi:

1. Madaniyat inson ijodiy faoliyatining o`ziga xos ko`rinishi sifatida ijtimoiy uyushmalar, jamiyat, jamoa, shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

2. Madaniyat o`z tarkibiga kishilar moddiy hamda ma'naviy faoliyatlari va uning natijalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, uning siyosiy, huquqiy, ekologik, mehnat, maishiy va turmush, jismoniy tarbiya madaniyatlari kabi tarkibiy turlari ajratiladi. Madaniyatning mazkur turlari tushunchalarining birligi. Ularning jamiyat va shaxs umumiy madaniyatini tashkil etishlarida, shu bilan birga har biri alohida tarzda ijodiy faoliyatni va uning natijalarini ifodalashlarida namoyon bo`ladi.

3. Ko`rib o`tilgan har bir madaniyatdagi ijodiy faoliyatda quyidagilar farq qiladi: ma'lum ijtimoiy va siyosiy hodisa yuzasidan bilimlarni egallash, ularni mushohada va qayta ishlash jarayoni va nihoyat, mazkur madaniyatni rivojlantirishda faol ishtirok etish.

Madaniyatning mohiyati, tarkibi hamda turlarini tadqiq etishga bunday yondoshuv jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtirokining o`ziga xos uslubi va me'yorlarini ochib berish imkoniyatini berdi.

O`zbekiston Respublikasida jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda “siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jamg`armalar hamda uyushmalarda”<sup>1</sup> ishtirokini yanada kuchaytirish, ularning davlat oldidagi mavqeyini mustahkamlash vazifasi qo`yilmoqda.

Jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ushbu faoliyatning maqsadi shaxsda muayyan xususiyat hamda sifatlarni tarbiyalashdan iboratdir;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent: O`zbekiston, 1996. –B. 14.

b) kishilar o`rtasidagi muloqot jarayonida g`oyalar, malaka va bilimlar almashinuvi mazkur faoliyat vositasi hisoblanadi;

v) jamoat tashkilotlari faoliyati yoki individual faoliyat madaniy faoliyatni amalga oshirish usulidir.

Davlat va jamoat tashkilotlarining aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq madaniy faoliyatlari xilma-xil bo`lishi bilan bir qatorda unga quyidagi umumiy jihatlar ham xosdir:

a) u faqatgina bir ustuvor madaniyatga tayanishi mumkin emas;

b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyat mezonlari hisoblanadi;

v) madaniy faoliyat mezonlarini ishlab chiqish va foydalanish sustgarchilikka yo`l qo`yilmaydigan ijodiy jarayondir.

Qishloqda madaniy faoliyat o`zining turlari va shakllariga ko`ra farqlanadi. Madaniy faoliyat shakllarini ularning tashkil etilish tavsifiga ko`ra jamoaviy va individual; madaniy faoliyat sub'ekti tavsifiga ko`ra individ, guruh, uyushma, jamoat tashkilotlari; madaniy faoliyat olib borilayotgan guruh turiga ko`ra esa oilaviy, xizmatdagi do`stlar va boshqa turlarga bo`lib tasniflash mumkin.

Jamiyatni demokratiyalashning hozirgi bosqichida madaniy faoliyat taraqqiyoti uyushgan (tashkilotlar darajasiga) hamda shaxsiy shakllarda amalga oshiriladi.

Aholi madaniyatini rivojlantirishda yuqori ko`rsatkichlarga erishish jamoat tashkilotlari, ijtimoiy-madaniy muassasalar va boshqa tashkilotlarning eng oliy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani hal etishning yo`llaridan biri jamoat tashkilotlarining madaniyatni rivojlantirish borasidagi faoliyatlarini boshqarishni takomillashtirish va ilmiy yondoshishdan iborat bo`lishi mumkin.

Davlat va jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirish yo`nalishidagi faoliyatlari tizimi o`zining maqsadi, vazifalari va mazmunini amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biri-muloqotdir. Muloqot bizning nuqtai nazarimizda uslubiy tizimning muhim belgisi, milliy madaniyatni rivojlantirishning qadimiy vositasi, o`zbek xalq pedagogikasining yetakchi unsurlaridan biri sifatida olib ko`rildi. Muloqot tavsifi ommaviy axborot vositalari

(teleko`rsatuvlar, radioeshittirishlar), havaskorlik ijodiyoti, bayramlar, sayllar bevosita ta'sir ko`rsatadi. Davlat va jamoat tashkilotlari muloqotning mashhur kishilar bilan uchrashuv, oila kunlari, qiziquvchilar birlashmalari kabi shakllaridan foydalaniladilar. Mustaqil O`zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash siyosati madaniy qurilishda muhim tayanch hisoblanadi. U Respublikamizda ma'naviy hayotni yangilash masalalari bilan bog`liq bo`lib, milliy madaniyatni rivojlantirish, tiklash sohasi xodimlarini tayyorlashni taqazo etadi.

Respublikamiz madaniy hayotida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy o`zgarishlar yuz berayotganligi ijtimoiy-madaniy faoliyatga bo`lgan talab va ehtiyojli yanada oshirdi.

Xullas ijtimoiy-madaniy faoliyat kasbining imkoniyat doirasi keng bo`lib, bozor munosabatlarining talab va taklif tamoyili talablari asosida erkin faoliyatlarni yo`lga qo`yishga yo`naltirilgandir.

### **2.3. O`zbekistonda ijtimoiy–madaniy faoliyatning istiqbollari.**

Ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash o`z - o`zidan bo`layotgani yo`q, albatta. U eng avvalo, mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan tarixiy ehtiyojlar asosida ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlar zamirida sodir bo`lmoqda. Ma'naviy sohadagi islohotlar doirasida quyidagi muhim ishlar amalga oshirila boshlandi. Eng muhimi Vatanimizda jahonda analogi yo`q “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi Kengashi tuzildi va unga yo`klatilgan vazifalar o`lkamizda jamoatchilik diqqatini ma'naviy masalalariga qaratdi.

Ma'naviyatni rivojlantirish - davlatning bosh vazifasi deb qarash - bu sohani jiddiy taraqqiy etishiga zamin bo`ldi.

O`zbekiston Prezidentining “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to`g`risidagi (1996y) farmonida “Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo`nalishi, deb hisoblansin”, - deb qayd qilindi.

“Ayrim katta-kichik rahbarlar... - deyiladi ushbu farmonda, - ma'naviyatnig asl ma'nosini tushunib yetmaslik tufayli, unga ikkinchi darajali ish sifatida

qarashmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlariga bo'lgan bunday e'tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro'yobi uchun mutlaqo ziddir". Farmondagi bu fikrlar turli darajadagi rahbarlarni xalq ma'naviyatiga jiddiy e'tibor berishga undadi.

Milliy mafkuraga bag'ishlangan (6 aprel 2000 yilgi) anjumanda Prezidentimiz rahbar, xodimlar, eng avvalo, ma'naviyat, mafkura, madaniyat bilan shug'ullanishi darkor ekanligini ta'kidladi.

Barcha darajadagi rahbarlar ma'naviyat bilan bevosita shug'ullana boshlashi - barcha joylarda keng ko'lamda ma'naviyatni jonlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Ma'lumki, ilgari, jumladan, sho'rolar davrida ma'naviyat bilan uchinchi rahbar (yoki rahbarning uchinchi o'rinbosari) ideologiya ishining bir qismi sifatida shug'ullanar edi. Ko'pgina mustaqillikka erishgan davlatlarda hozir ham shunday bo'lib qolmoqda. Bizning Respublikamizda esa Prezidentimiz farmoni asosida: "joylarda ma'naviyat bilan bog'liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas'uliyat shaxsan Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat shahar va tuman hokimlari, respublikamizdagi barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi rahbarlarining zimmasiga yo'klatildi. Prezidentimiz esa barcha rahbarlarga shaxsiy namuna ko'rsatib, o'zini "ma'naviyatning bosh - homiysi va himoyachisi" deb e'lon qildi.

Yirik nufuzli tashkilotlarga ma'naviyat bo'yicha maxsus - rahbarning birinchi o'rinbosari lavozimi joriy etilishi – darhaqiqat barcha ishlar orasida ma'naviyatning birinchi o'ringa olib chiqilganiga amaliy isbot bo'ldi. Ayniqsa, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida rektor va direktorlarning "ma'naviyat va ma'rifat" bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimlari joriy etilishi – o'quv yurtlarida va nafaqat yaxshi mutaxassislarni, balki ma'naviy kamol topgan bo'lajak rahbarlarni tarbiyalash uchun imkoniyat yaratdi.

Respublikamizda azaliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha o'ta jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi - ma'naviyatimiz "bino"sining qaddini ko'tarishida muhim vositalardan biri bo'lmoqda. Natijada respublikamizda yangi ma'naviyat sohasi tizimi vujudga kela boshladi.

“O`zbekkino”, “O`zbeknavo”, “O`zbekraqs”, “O`zbeklitsey”, “O`zbekteatr”, Badiiy akademiya, o`zbek amaliy san'ati markazi, “ta'lim markazi” kabi ko`plab respublika tashkilotlarining tuzilishi madaniyat va ma'naviyatning asosiy sohalarini taraqqiy ettirishga ko`mak bermoqda.

“Ijtimoiy – madaniy faoliyat”, avvalo, ijtimoiy-madaniy muassasa, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog`lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Ijtimoiy-madaniy muassasalar bu g`oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o`ynaydi. Ularni har tomonlama rivojlantirish, havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Ijtimoiy-madaniy muassasalar quyidagi turlarga bo`linadi: *Kutubxona, muzey, madaniyat uyi, istirohat bog`i, madaniy dam olish maskanlari.*

*Kutubxonalar* o`zlarining vazifalari, faoliyatlari, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o`quv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo`linadi. Ommaviy kutubxonalar aholining turli sohaga doir kitoblarga bo`lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

*Muzeylar* - Ular vazifasi tarixiy xujjatlarni, moddiy va ma'naviy madaniyat yodgoriliklarini, san'at asarlarini, tabiat boyliklarining namunalarini to`plash, saqlash, ularni ilmiy ishlab chiqarish va ko`rgazmaga qo`yishdan iboratdir. Shular bilan birgalikda muzeylar ilmiy - tekshirish ishlarini ham olib boradilar.

Madaniyat uylari, saroylari ikki turga bo`linadi:

*I. Madaniyat Vazirligi tarmog`idagi madaniyat uylari.* Bularga quyidagilar kiradi:

1. Shahar madaniyat uylari - bular davlat tarmog`idagi madaniyat uylari bo`lib, shahar aholisiga xizmat ko`rsatadi.
2. Tuman madaniyat uylari.
3. Qishloq madaniyat uylari - o`zlari yashaydigan qishloq aholisiga madaniy xizmat ko`rsatadi.

*II. Kasaba qo`mitasi tarmog`idagi madaniyat muassasalari.* Ularga korxonaga qoshidagi, shuningdek, sanatoriylar, dam olish uylarining klublari ham kiradi. Ular o`z tashkilotlarining ixtiyorida bo`ladi.

*Madaniyat va istirohat bog`lari* - ularda ommaviy sayillar, karnavallar, sport va boshqa bayramlar, turli ommaviy tomoshalar o`tkaziladi, spektakllar, kinofilmlar qo`yiladi, siyosiy va ilmiy ma'ruza va dokladlar tinglanadi. Madaniy dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo`ladi. Bundan tashqari madaniyat va istirohat bog`larining bezagi, ulardagi tabiiy manzarali joylar kishilarning estetik didlarini o`stirishga yordam beradi

*Teatrlar* – sahna asarlarining janrlariga muvofiq, quyidagilarga bo`linadi:

- A) opera va balet teatrlari;
- B) drama;
- V) muzikali komediya teatrlari;
- G) yosh tomashabinlar teatrlari;
- D) qo`g`irchoq teatri
- Y) miniatyura teatrlari
- J) estrada teatrlari

*Konsert tashkilotlariga quyidagilar kiradi:*

- A) davlat filarmoniyalari;
- B) davlat estrada jamoalari
- V) mustaqil musiqa jamoalari.

*Kinoteatrlar* – kinofilm namoyish qilish uchun maxsus jihozlangan maskan.

Xullas yuqoridagi ko`rsatib o`tilgan tashkilotlarda asosan madaniyat xodimi ish yuritadi. Albatta xodimning pedagogik odobi - bu jarayonda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy-madaniy xodimining pedagogik odobi-bu uning mayyan vaziyatda shaxsga yoki jamoaga tarbiyaviy ta'sir etishning maqsadga muvofiq usullari va yo`llarini tanlay va qo`llay bildirish. Pedagogik odobi amaliy faoliyatda, kishilar bilan muloqotda bo`lish jarayonida namoyon bo`ladi va mustahkamlanadi.

Odoblilikning rivojlanishi ijtimoiy-madaniy xodimning umumiy madaniyati, shaxsiy sifatlarga bog`liq bo`ladi.

Shuningdek, ijtimoiy – madaniy ishlar bilan ommaviy axborot vositalari (radio, tv, matbuot), Ta'lim tarbiya muasasalari, Ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassom, kompozitorlar, teatr arboblari) ham shug`ulanadilar.

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni tiklash borasida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarimizni qamrovi juda kengdir. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Ko`p ming yillik tariximiz haqqoniy, chuqur va har tomonlama o`rganilishi, tarixiy mavzulardagi (sovet davrida taqiqlangan) asarlarning chop etilishi milliy-tarixiy ongni shakllantirishda muhim rol o`ynamoqda.

- Xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro`z, Ro`za hayit, Qurbon hayit kabilar) ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, o`qituvchilar kuni, xotira va qadrlash kuni kabilar) ni joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga ijobiy ta'sir etmoqda.

- Diniy qadriyalarning tiklanishi, eski masjid va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda.

- Dunyo taraqqiyotiga o`z hissasini qo`shgan - buyuk mutafakkirlar, davlat arboblarning ma'naviy merosidan xalqimiz faxr bilan foydalana boshladi, jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Naqshbandiy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabilarning asarlari xalqimizga ruhiy-ma'naviy quvvat bag`ishlamoqda. YUNESKO yordamida jahonga munosib hissa qo`shgan allomalar (Ulug`bek, Amir Temur, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy) ning yubileylarini o`tkazish odamlarda milliy faxr tuyg`ularini yo`ksaltirmoqda.

- Jahonni lol qoldirgan tarixiy me'morchilik inshootlari keng qo`lamda ta'mirlanmoqda, jumladan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarda tarixiy-me'moriy yodgorliklar tiklanishi, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarning 2500 yilligi, Termiz shahrining 2700 yilligining nishonlanishi ajdodlarimiz ruhi oldida chuqur hurmat tarzida namoyon bo`lmoqda. O`zbek

tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi esa milliy g'ururimizni o'stirmoqda. O'z navbatida jahon tillarini o'rganish ehtiyoji bizni olamga "yuz tutishimiz"ga, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishimizga yordam bermoqda.

- Xalq ijodi, amaliy san'ati jonlanib, vatandoshlarimizni ham, xorijliklarni ham lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bu respublika va xalqaro anjumanlar o'tkazilishi, ajdodlarimiz qoldirgan meros va milliy-axloqiy madaniyat durdonasi yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda.

- Buni alohida ta'kidlash kerakki, ajdodlarimiz merosini tiklash bo'yicha qilinayotgan ishlarimizni nafaqat o'zimiz, balki butun jahon tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o'rganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari (chunonchi, J.Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Turkiya) dan tashrif buyurgan mutaxassis-olimlar an'anaviy madaniyatimizni tiklash bo'yicha qilinayotgan harakatlarimizga qoyil qolishmoqda.

An'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyusiyasi va umum qabul qilingan "madaniyat" tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalarini aniqlashga intildik. Natijada, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyati tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy - g'oyaviy mazmuni qanchalik

chuqur bo`lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo`lar ekan.

Xalq madaniyatining asosiy ko`rinishlarini aniqlash natijasida o`ziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniqlash ham katta ilmiy qiymatga egadir.

Xalq ijodiy an'analarini saqlash va rivojlantirish, jumladan, xalqning og`zaki, musiqali, amaliy, teatr - tamoshaviy deb atalgan asosiy ijod turlari janrlarini tiklashga oid uslublar ishlab chiqish zarurati tug`ilmoqda.

Xalq og`zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgi-hikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining: alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula, marosim qo`shiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy jamoalar folklor etnografik guruhlar, xalq xavaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomosha ijodining masxaraboz, qiziqchi, dorboz, nayrangboz, qo`g`irchoqboz; xalq ommaviy - bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, o`ymakorlik, zardo`zlik, to`qimachilik; tabiat bilan bog`lik bo`lgan ijodning rang - barang tur va janrlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelindiki, ular avlodlar ongini, badiiy tafakkurini, estetik qarashlarini taraqqiy ettiribgina qolmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqning o`z tarixi va taqdiri haqida o`ylashga, bunyodkorlik qilishga undagan. Shuning uchun, ijodiy merosni tiklash va kamol toptirish xalqning barcha ijtimoiy-madaniy sohalaridagi faolligini oshirishda muhim omil bo`ladi.

“An'anaviy xalq madaniyati” deyilganda keng ma'noda etnosning hayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham, uning tub ma'nodagi negizini xalq an'analari hosil qiladi. Shuning uchun ham xalq an'alarini o`rganish o`zbek madaniyatshunosligining asosiy vazifalaridan biriga aylanmog`i lozim.

Hozirgi vaqtda O`zbekistonning asosiy davlat bayramlari asosan shakllangan bo`lsada, azaliy bayramlarni tiklash jarayoni tugagan, deb hisoblash noto`g`ri bo`ladi. Bu borada hali bajariladigan ishlar ham kam emas. Bir tomondan, azaliy bayramlar bilan birga ularga xos odatlar va an'analar tiklanishi darkor. Ikkinchi tomondan, mustaqillik davrida paydo bo`lgan tarixiy - ma'naviy qadriyatlar bilan ham boyitilmog`i lozim.

Xalq an'alariga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar tahlil natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: Insonning tabiiy - hayotiy ehtiyojlar asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlar asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulolalarning mahv etilishi, hukmdorlar, istilochilarning kelib ketishlari, hattoki hududdagi aholi tarkibi o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchi turkum bayram marosimlar esa ma'lum vaqtdan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishi asos bo'lishi mumkin. Uchinchi guruh marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki hukmdorlarning hohish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng barham topadi.

Xalq an'anaviy madaniyati borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Buning sababi quyidagilardan iborat:

Birinchi, o'yinlar - ajdodlarimizning eng qadimiy tarixiy qadriyati, ko'pgina madaniyati shakllari chashmasi – raqs, teatr, sport, marosimlar kabilar aynan o'yinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda o'yinlar ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan;

Ikkinchi: ota-bobolarimiz xalq o'yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo'lib kelgan;

Uchinchi, o'yinlar nafaqat ma'naviy meros bo'lib qolmasdan zamondoshlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamol bo'lishida o'ta muhim o'rin tutadigan manbadir.

O'yinlar - eng qadimiy madaniyat shakllaridan biri<sup>1</sup>. Ular ko'pgina san'at turlari (raqs, teatr), marosim, sport kabilarning sarchashmasidir. Biz shunga alohida e'tibor berib, Forish noxiyasida 1985 yildan boshlab unutilgan xalq o'yinlarini o'rganish (1985-1986 yil) tiklash (1987-1991 yil), va targ'ib qilish (1991-1993 yil) bo'yicha tajribalar olib bordik. Buning natijasida, 100 ga yaqin

<sup>1</sup> Qoraboev U. O'zbek xalq o'yinlari. T:Sharq, 2001.-B. 8.

o`yinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an'anaga aylanib, har yili o`tkazilib kelinayotgan "Xalq o`yinlari" bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda o`z aksini topdi. Tajriba asosida xalq o`yinlarini tiklash va rivojlantirish yo`llari belgilandi.

Respublikamizda xalq o`yinlarining tiklanishida ham aynan Jizzax viloyati Forish tumanini tajribasi diqqatga sazovor bo`ldi. Bu yerga avvaliga bir maktab, qishloq, keyin tuman, so`ngra viloyat va nihoyat, respublika darajasida tiklangan xalq o`yinlari bo`yicha musobaqalar uyushtirildi. Forishda 1994-96 yillarda Respublika I-II Olimpiadalari o`tkazilishi o`lkamizning turli joylarida azaliy xalq o`yinlariga bo`lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi.

Shu narsani quvonch bilan qayd etish kerakki, o`yinni jon dildan sevadigan yoshlarimiz ajdodlarimizning o`yinlariga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Forishda o`tkazilgan olimpiada musobaqalarining ishtirokchilari asosan, o`spirin-yoshlardan tashkil topdi. Bu esa XX asr o`rtalarda unutilgan an'analarini asr oxirida tiklanib, yoshlar tomonidan o`tkazilganidan dalolat beradi.

Xalq o`yinlarini tiklash jarayonida ham o`ziga xos muammolar yo`q emas. Masalan, azaliy musobaqalarning sportga yaqin turlariga ko`p e'tibor berilmoqda. Biroq o`yinlarning harakatli tomoniga e'tiborni kuchaytirib, urg`u berib, ruhiy tomoni unutilib qo`yilmoqda. Xolbuki Sharq o`yinlarida odingi o`rinda ruhiyat, keyin jismoniyat turgan. Ajdodlarimiz foydalangan so`z o`yinlar, aqlli o`yinlar, raqsli o`yinlar, syujetli teatrlashtirilgan o`yinlar ham diqqat talab qilmoqda. Xalqimizda insonni har tomonlama barkamol qiladigan an'analar, o`yinlar, musobaqalar yaratilgan, ulardan nafaqat saralab, balki an'anaviy o`yinlar tizimidan yaxlit shaklda foydalanmoq ham kerak.

Madaniy merosimizning bir qismi bo`lgan, avlod - ajdodlarimizga asrlar mobaynida ruh, jon va sog`lik ato etib kelgan xalq o`yinlarini jonlantirish - milliy qiyofamiz, ma'naviyatimiz va qadriyatimizning muhim qismini tiklash demakdir. Ularni ko`z qorachigidek asrash, e'zozlash va ulardan oqilona foydlana olish muqaddas ish ekanligini unutmasligimiz kerak. Ana shunday qila olsak

o`zimizning ham, kelajak avlodlarimizning ham, xalq iborasi bilan aytganda “jonu-tani omon bo`ladi”.

An'anaviy xalq madaniyati va uning asosiy ko`rinishlari (xalq donishmandligi, e'tiqodi, pedagogikasi, an'analari, ijodi, dam olish madaniyati, o`yinlari kabilar) insoniyatning tarixiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, xalq hayotida o`zining munosib o`rnini topgan, avloddan - avlodga meros bo`lib o`tgan, takomillashib, ijtimoiy taraqqiyotda muhim o`rin tutgan. Ular hozirgi zamonda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ajdodlarimizning bu bebaho merosini yanada chuqurroq o`rganishimiz, tiklashimiz va kamol toptirishimiz uchun aql, kuch va g`ayratimizni ayamashimiz lozim.

Milliy mentalitetimizni aks ettiruvchi har xil madaniy tadbirlar, jumladan, sport musoboqalari, milliylikimizni aks ettiruvchi ko`rgazma va o`yinlar, festivallarga befarq bo`lmay diqqat bilan kuzatib atrofdagilarimizni ham bunga undasak maqsadga muvofiq bular edi. Lekin hozirgi kunda kirib kelayotga ommaviy madaniyatning mafkuraviy tahdidi milliylikimizga xavf solishi mumkin. Ma'lumki, talaba yoshlar, talabalar yangilikka intiluvchan, yangi estetik standartlarni tez qabul qilishadi. Ulardagi ana shu ijtimoiy-psixologik xususiyat ba'zida “ommaviy madaniyat” orqali kirib kelayotgan shubhali qadriyatlarga tanqidiy yondashuvni ham cheklab qo`yadi. Maqbul yoki nomaqbulligi haqida muayyan fikr-mulohazasi bo`lmagan yoshlar hayotimizga, milliy mentalitetimizga mos kelmaydigan “mafkuraviy” mahsulotlarni o`zlari bilmagan holda qabul qilishlari mumkin. Ana shuning uchun ham O`zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchi bo`lib maktab, kollej, institutlarda dinshunoslik asoslari predmetini joriy etdi. Yuqorida aytib o`tganimizdek ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali milliy mentalitetimizni ommaga yetkazish, yoshlar ongiga singdirish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. MDHning ayrim peshqadam davlatlari bu ma'rifiy tashabbusning samarasini tez his qildilar. Masalan, Rossiya Federasiyasida ham 2006 yildan boshlab “Pravoslav(islom, Buddiylik) madaniyati asoslari” o`quv predmeti joriy etila boshlandi. Prezident Islom Karimov bugungi kunda

yoshlarimiz qalbi va ongiga tahdid solayotgan ommaviy madaniyat tahdidi mohiyatini ochib berib: “Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilgandan so’ng, jamiyatda paydo bo’lgan g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o’z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo’lishi kerak” - dedi <sup>1</sup>.

Xush “Ommaviy madaniyat”ga, u bilan yopirilib kelayotgan ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlariga nimani qarshi qo’ysa bo’ladi? Milliy madaniyatni, milliy tarbiyani, milliy ma’naviyatni, ota-bobolarimiz e’tiqod qo’yib kelgan islomiy qadriyatlarni. Buni shu vatanning har bir a’zosi anglab yetishi zarur.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. 2007 yil 30 avgust kuni Oqsaroyda Senat, Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasining qo’shma majlisida so’zga chiqib so’zlagan nutqi. // Xalq so’zi gazetasi, 2007-yil 30-avgust

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishgach har sohada bo'lgani kabi iste'dod egalariga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, ularga g'amxo'rlik qilish kun tartibiga qo'yildi. Respublika Prezidentining bu boradagi qator farmonlari, hukumat qarorlari fikrlarimizni tasdiqlaydi. Buni jamiyatimizning ma'naviy darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri deyish mumkin.

Respublikamizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kishilarimizning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari kundan kunga o'sib, o'zgarib bormoqda, axloqiy qiyofasi va fe'l-atvorida ham o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday sharoitda ijtimoiy-madaniy ishlarning sho'rolar davrida maqbul bo'lgan shakl va usullari bugungi kunda eskirib, talabga javob bermayapti. Mustaqillik sharoiti kishilarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, unga g'oyaviy ta'sir etishning yanada yangi, samarali usul va vositalarini qo'llashni talab qilmoqda. Bu esa ijtimoiy-madaniy ishlarning mazmunini takomillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Mustaqil davlatimiz ijtimoiy-madaniy soha xodimi chuqur g'oyaviy-nazariy va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'z kasbiga mehr-muhabbatli, sadoqatli bo'lishi kerak. o'z kasbiga sodiqlik, hushyorlik, ishda qat'iylik, o'ziga talabchanlik ijtimoiy-madaniy soha xodimining asosiy xislatlaridandir. Shuningdek, ishga ijodiy yondoshish, tashabbuskorlik, yangilikka intilish xislatlar xam xos bo'lishi kerak. Bularsiz u ijtimoiy-madaniy ishlarning mazmuni, shakl va usullarini to'xtovsiz takomillashtirib borishdek muhim vazifani muvoffaqiyatli bajara olmaydi.

Ijtimoiy-madaniy soha xodimi faoliyatining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishlarini, ishga hamma vaqt ijodiy yondashishni talab qiladi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan Respublikamiz jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallab, tobora rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat pedagogik faoliyatning boshqa turlaridan o`zining mazmunan murakkabligi, ko`p qirraliligi, shaklan xilma-xilligi, ish shakllarining o`ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan farq qiladi

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy-madaniy faoliyat – aholini ma'naviy kamol toptirish, ma'naviy saviyasini oshirish, bilimni o`stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo`sh vaqtini samarali o`tkazishga ko`mak beradigan ishlar majmuasidir. Ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan mafkura, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, tarbiya, ijodga aloqador bo`lgan barcha tashkilotlar mashg`ul bo`lishadi. Shuning uchun ijtimoiy-madaniy muassasa xodimi ijtimoiy-madaniy faoliyat asoslarini yaxshi bilmog`i lozim.

Yangi jamiyat bunyodkori bo`lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma'noda o`zini-o`zi boshqarish idorasiga aylantirishda kata hissa qo`shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig`inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-ahloqiy masalalar bo`yicha maslahatchilarining ijobiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko`ngliga yo`l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo`lib, o`z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to`g`ri va o`rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorumizda tinchlik va ososiyishtalik, o`zaro mehr-oqibat tuyg`ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o`ziga munosib o`rin topishida bu fidoiy va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o`ynayotganini hurmat bilan e'tirof etishimiz lozim.

Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo`lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa yueqiyos o`rin tutadi. Samarqand yaqinidagi Mo`minobod qishlog`idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg`usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o`zining “Zafarnoma” kitobida Amir Temur davrida

o`tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to`xtalib, “Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g`azalu naqsh aytur erdilar. Va turk-u mo`g`ul, xitoy-u arab va ajamdin har kim o`z rasmi bilan nag`ma aytur erdi”<sup>1</sup>, degan ma`lumotlarni keltiradi.

Mustaqillik yillarida ulug` bobolarimizning ana shunday an'alarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqaviy merosimizni asrab-pavaylash va o`rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko`plab ko`rin-tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari muntazam ravishda o`tkazib kelinmoqda.

Yuqorida O`zbekistonda ijtimoiy-madaniy faoliyani amalga oshirishda milliy mentalitetning o`rni mavzusini tadqiq qilish va adabiyotlar bilan tanishish natijasida quyidagilar tavsiya etiladi.

Oilada olib boriladigan ijtimoiy-madaniy faoliyatda farzandga milliy mental xususiyatlarni singdirish lozim.

Milliy mentalitetimizni aks ettiruvchi har xil madaniy tadbirlar, jumladan, sport musoboqalari, milliylikimizni aks ettiruvchi ko`rgazma va o`yinlar ko`paytirish lozim.

Milliy mental xususiyatlarni aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatni davlat muassalari faoliyatida tashkil etishni takomillashtirish lozim.

Milliylikimizni aks ettiruvchi internet saytlari tashkil etish lozim.

Milliy o`yinlarni texnologiyalashtirish.

---

<sup>1</sup> Ahmedov B. Tahriri ostida. Temur tuzuklari. T.;2002. –B. 97.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Normativ-huquqiy hujjatlar va materiallar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2013.  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari.**
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li //O'zbekistn milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura .T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
4. Karimov I. A Yuksak manaviyat–yengilmas kuch.–T.: Manaviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qo`rilishida biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-qudrat manbai // Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000.
6. Karimov.I.A. O'zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari// Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A.Ozod va obod Vatan,erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 1994.
8. Karimov I.A. O'zbekiston – buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo`lida.-T.: O'zbekiston,1998.
10. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.-T.: O'zbekiston, 1998.
11. Karimov I.A. Bizni tanlagan yo`limizdan hech kim qaytara olmaydi // O'zbekiston ovozi, 2005 yil 24 may.
- 12.Karimov I. A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19- jild. – T.: O'zbekiston, 2011. – 345 b.
- 13.Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: O'qituvchi, 2011. – 144 b.
- 14.Karimov I. A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – T.: O'zbekiston, 2012. – 312 b.
- 15.Karimov I. A. Mustaqillik – barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.

Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Xalq so'zi. 2013 yil 2 sentyabr.

16. Karimov I. A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. O'zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
17. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O'zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so'zlagan nutqi. O'zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.

#### **Asosiy adabiyotlar.**

19. Alimova Sh. Madaniy-marifiy faoliyat asoslari. O`quv qo`llanma. Toshkent – 2007 yil.
20. Tuychiyeva S. .Norbekov A. Ijtimoiy siyosat.- Toshkent . 2010.
21. O`zbekiston milliy ensklopediyasi. 9-tom. Davlat ilmiy nashriyoti-2005yil.
22. Bekmurodov M.B.O`zbek mentaliteti. -Toshkent – 2011.
23. Abdullayeva va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug`at. – T.: Sharq, 1996.
24. Xolbekov A., Iderov U. Sotsiologiya (izohli lug`at – ma'lumotnoma). – T.: Abu Ali ibn Sino Nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1999.
25. Nazarov Q. va boshqalar. Falsafa qomusiy lug`at . – T.: Sharq , 2004.
26. Turg`unov F. Mehnat mentaliteti: yangilanish va taraqqiyot dialektikasi. – “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”. 2004.
27. Nazarov Q. va boshqalar. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lo`g`at) – T.: Yangi asr avlodi, 2002.
28. Bekmurodov M., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati.-T.: Adolat,2003.

29. Kochnev B.D. Srednevekovye zagorodnye kultovye sooruzeniya Sredney Azii. -T.: Fan, 1976
30. Qoraboyev U. O`zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, 2002.
31. Ochildiyev A. Milliy g`oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O`zbekiston, 2004.
32. F.Turg`unboyev. O`zbekistonda mehnat mentalitetining yangilanish xususiyatlari.-Toshkent-2006.
33. E.V.Sokolov Svobodnoe vremya i kultura dosuga. -Leningrad, 1977
34. Sarimsoqov B. O`zbek marosim folklori. -T.: Fan, 1990
35. Jabborov I. O`zbek xalqi etnografiyasi.T.: O`qituvchi, 1994
36. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O`qituvchi 1996
37. Xolmetova M. Ommaviy munosabatlar madaniyati va sog`lom avlod tarbiyasi. -T.: O`zbekiston, 2000
38. Qoraboyev U, O`zbek xalq o`yinlari –T.: Fan, 2001.
39. Qodirov M. O`zbek xalq tomosha san'ati. -T.: 1974.
40. Abduraximov T. O`zbek xalq o`yinlari va tomoshalari -T.: 1997.
41. Galiev Sh. O`zbek bolalar o`yin folklori”. -T.: Fan. 1998.
42. Usmonxo`jayev T., Xo`jaeva F. Ming bir o`yin. -T.: Ibn Sino. 1990.
43. Usmonxo`jayev T., Xo`jaeva F. Harakatli o`yinlar. -T.: O`qituvchi, 1992.
44. Galiev Sh. O`zbek bolalar o`yin folklori. -T.: Fan. 1998.
45. Erkayev A., Ma'naviyat - millat nishoni, -T.: Ma'naviyat, 1997.
46. Bo`riyev O.B., An'anaviy uy qo`rish bilan boqiy rasm-rusumlar (o`zbek xalqi boqiy qadriyatlari), Qarshi, 2005.
47. Jabborov I., O`zbeklar: turmush tarzi va madaniyati, -T.:Sharq, 2003.
48. Jumaniyozov R., Xalq ijodiyoti — haq ijod, -Toshkent, 1992.
49. Karimov B.R.Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari. -Qarshi: Nasaf, 2003.
50. Axunjanova.E.A., Pismennaya kultura Sredney Azii, T., 2000.

**Dissertatsiya va avtoreferatlar.**

51. F.Atamurodova. Mustaqillik sharoitida o`zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar (fasafiy tahlil). Toshkent-2010.
52. Ashxamaxova A.A. Sotsialno-filosofskiy analiz mentaliteta: obshche i osobennoe.Nalchik : 2006.
53. Safarboyeva I. O`quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Toshkent-2006.

**Internet saytlari**

54. [www.google.ru](http://www.google.ru)
55. [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)
56. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
57. [www.sharqtaronalari.uz](http://www.sharqtaronalari.uz)